

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI

JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO'YICHA MUTAXASSISLARNI  
QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

2.3.

**"PEDAGOGNING PROFESSIONAL KOMPETENTLIGI  
VA MAHORATI"  
MODULI BO'YICHa**

**O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

**Malaka oshirish  
yo'nalishi:**

**Tinglovchilar  
kontingenti:**

**Jismoniy tarbiya instruktori**

**Maktabgacha ta'lif  
tashkilotlari jismoniy tarbiya  
instrukturлари**

**Toshkent – 2023**

Mazkur o‘quv uslubiy majmua O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi bilan 2020-yil 31-dekabrda kelishilgan holda Jismoniy tarbiya va sport vazirligi tomonidan 2021-yil 4-yanvarda tasdiqlangan namunaviy o‘quv reja va o‘quv dasturga muvofiq ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchi:**

G.Yeldasheva

JTSBMQTMOI “Pedagogika va psixologiya” kafedrasи dotsenti,  
p.f.n., dotsent

**Taqrizchilar:**

A.Akmalov

JTSBMQTMOI “Pedagogika va psixologiya” kafedrasи professori  
v.b., p.f.n., dotsent

G.Karimova

PROFI UNIVERSITY xususiy olim ta’lim  
muassasasining “Pedagogika ba psixologiya” kafedrasи  
mudiri, p.f.f.d. (PhD), dotsent

*Ushbu o‘quv-uslubiy majmua “Pedagogika va psixologiya” kafedrasining  
2023 yil 5-yanvardagi 1-sonli yig‘ilishida ko‘rib chiqildi va institut ilmiy  
kengashining 20\_\_yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_da o‘tkazilgan yig‘ilish \_\_-sonli qarori  
bilan tasdiqqa tavsiya qilingan.*

**MUNDARIJA**

<b>I.</b>	<b>Ishchi dastur</b>	<b>3</b>
<b>II.</b>	<b>Modulni o‘qitishda foydalaniladigan interfaol ta’lim metodlari</b>	<b>11</b>
<b>III.</b>	<b>Nazariy materiallar</b>	<b>19</b>
<b>IV.</b>	<b>Amaliy mashg‘ulot materiallari</b>	<b>65</b>
<b>V.</b>	<b>Keyslar banki</b>	<b>74</b>
<b>VI</b>	<b>Testlar to‘plami</b>	<b>79</b>
<b>VII</b>	<b>Glossariy</b>	<b>89</b>
<b>VIII</b>	<b>Adabiyotlar ro‘yxati</b>	<b>90</b>



## ISHCHI DASTUR

## Modulning maqsad va vazifalari

**Modulning maqsadi:** Jismoniy tarbiya instruktori huquq va majburiyatlar. O‘quv-trenirovka mashg‘ulotiga qo‘yiladigan didaktik talablar. Jismoniy tarbiya instruktorining ta’lim-tarbiya jarayonidagi faoliyati va mashg‘ulotga tayyorgarligi. Jismoniy tarbiya instruktorining pedagogik kompetensiyasi, pedagogik mahorat, ta’lim texnologiyalari mohiyati, turlari va ta’lim shakllari hamda metodlaridan samarali foydalanish bo‘yicha bilim, ko‘nikma, malaka hamda shaxsiy fazilatlarini takomillashtirish.

### Modulning vazifalari:

pedagogning professional kompetentligi va mahorati yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini uzluksiz yangilash va rivojlantirish mexanizmlarini yaratish;

zamonaviy talablarga mos holda ta’limning sifatini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan pedagoglarning kasbiy kompetentlik va mahorati darajasini oshirish;

tinglovchilarda jismoniy tarbiya instruktorining pedagogik kompetensiyasi va mahoratidan samarali foydalanish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish;

yosh sportchi shaxsining shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar: irsiyat, muhit, tarbiya. Yosh sportchining shakllanishida irsiyatning ahamiyati. Ichki va tashqi muhitning bola shaxsida ta’siri;

tinglovchilarda sport mashg‘ulotlariga innovatsion pedagogik texnologiyalarini qo‘llash orqali bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish orqali ularning pedagogik kompetensiyasi va mahoratini rivojlantirish.

## Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

“Pedagogning professional kompetentligi va mahorati” kursini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

### Tinglovchi:

jismoniy tarbiya instruktorining pedagogik kompetensiyasi va mahorati funktsiyalari;

jismoniy tarbiya instruktorining pedagogik kompetensiyasi, pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalarni turlari va qo‘llanilish sohalari;

jismoniy tarbiya instruktori mashg‘ulotlarda pedagogik kompetensiyasi va mahorati doirasida yuzaga keladigan muammolar va ularni hal etish usullari;

bolalarni mashg‘ulotlar jarayoninida o‘z-o‘zini boshqarish yo‘llariga ega bo‘lishi lozim.

**“Pedagogning professional kompetentligi va mahorati”** kursini o‘zlashtirish jarayonida ***bilimlarga*** ega bo‘lishi;

**Tinglovchi:**

o‘z kasbiy faoliyat sohalarida normativ - huquqiy hujjatlar bo‘yicha xizmat ko‘rsatish;

jismoniy tarbiya va sport turlari haqidagi yangi bilimlarni shakllantirish;

bolalarni texnik va taktik jihatdan tayyorlashda pedagogik faktorlar ega bo‘lishi hamda yondashuv jihatlariga aosslanishi;

**“Pedagogning professional kompetentligi va mahorati”** modulini amaliyotda qo‘llash ***ko‘nikmalarini*** egallashi;

**Tinglovchi:**

bolalarni bilish jarayonlari nutq, muloqot, jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmalarini shakllanishi;

kasbiy mahorat sirlarini o‘zlashtirish hamda bolalarning jismoniy sifatlarini aniqlash, tahlil etish, baholash va umumlashtirish;

zamonaviy pedagogik kontseptsiyalarga doir keyslar tuzish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.

**“Pedagogning professional kompetentligi va mahorati”** moduli bo‘yicha ***malakalarini*** egallashi;

**Tinglovchi:**

zamonaviy pedagogik usullardan foydalanish va tashkil etish;

sportda ta’lim va tarbiya jarayonlarini o‘zviyligini ta’minlash;

ta’limiy-tarbiyaviy maslaxatlar berish;

jismoniy tarbiya instruktorining pedagogik kompetensiyasi va mahoratini, pedagogik texnologiyalarni ta’lim amaliyotiga samarali tatbiq etish malakalarini egallashi lozim

motivlar mashg‘ulot faoliyatni samaradorligini oshiruvchi vosita ekanligi haqida malakalarga ega bo‘lish kabi **kompetensiyalarни** egallashi lozim.

### **Modulning o‘quv rejadagi**

#### **boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyiligi**

“Pedagogning professional kompetentligi va mahorati” moduli bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘quv rejasidagi umumiyligi tayyorgarlik, umumkasbiy tayyorgarlik va mutaxassislik bo‘yicha tayyorgarlik blokidagi o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda tinglovchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

### **Modulning sport ta’limidagi o‘rnini**

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar jismoniy tarbiya instruktorining pedagogning professional kompetentligi va mahoratini o‘zlashtirish, joriy etish va amaliyotda qo‘llashga doir umumiyligi va kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar va pedagogik mahoratini oshiradilar.

**Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti**

№	<b>Modul mavzulari</b>	Hammasi	<b>Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soatlari</b>				<b>Mustaqil tayyorgarlik</b>	
			<b>Auditoriya o‘quv yuklamasi</b>					
			<b>Jumladan,</b>					
			<b>Jami</b>	<b>Nazariy</b>	<b>Amaliy mashg‘ ulot</b>	<b>Ko‘chma mashg‘ ulot</b>		
1.	Pedagog faoliyatning maqsad va vazifalari	2	2	2				
2.	Ta’lim-tarbiya jarayoni sifatini oshirishda pedagog kompetensiyasining o‘rnii va uning turlari. Kasbiy kompetensiya modeli	2	2	2				
3.	Ta’lim sifatini oshirishda pedagogik kompetentlikni rivojlantirish yo‘llari va pedagogning mahorati, shaxsiy-kasbiy malakalari	2	2		2			
4.	Pedagogning autopsixologik professional kompetentligini rivojlantirish usullari	2	2		2			
	<b>Jami:</b>	<b>8</b>	<b>8</b>	<b>4</b>	<b>4</b>			

**NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

**1-mavzu. Pedagog faoliyatning maqsad va vazifalari**

**Reja**

1.1. Pedagog faoliyatning maqsadi

1.2. Pedagog faoliyatning vazifalari

## Pedagogning professional kompetentligi va mahorati

---

Pedagog faoliyatning vazifalari. O‘quv mashg‘ulotiga qo‘yilgan didaktik talablar. Pedagogning ta’lim-tarbiya jarayonidagi faoliyati va mashg‘ulotga tayyorgarligi. Pedagogik nazokat, samimiylilik va insonparvarlik

### **2-mavzu. Ta’lim-tarbiya jarayoni sifatini oshirishda pedagog kompetensiyasining o‘rni va uning turlari. Kasbiy kompetensiya modeli**

#### **Reja**

2.1. Ta’lim-tarbiya jarayoni sifatini oshirishda pedagog kompetensiyasining o‘rni va uning turlari

2.2. Kasbiy kompetensiya modeli

2.3. “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturida “Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish” sohasi kompetensiyalari

Ta’lim-tarbiya jarayoni sifatini oshirishda pedagog kompetensiyasining o‘rni va uning turlari. Kasbiy kompetensiya modeli. Kasbiy kompetensiyanı shakllanish bosqichlari: O‘zini o‘zi tahlil qilish va zarur narsalarни anglash; o‘zini rivojlantirishni rejalashtirish maqsad, vazifa belgilash; o‘zini namoyon etish va kamchiliklarini tuzatish omillarini nazariy-metodologik asoslari. “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturida “Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish” sohasi kompetensiyalari.

## **AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

### **3-mavzu. Ta’lim sifatini oshirishda pedagogik kompetentlikni rivojlantirish yo‘llari va pedagogning mahorati, shaxsiy-kasbiy malakalari**

#### **Reja:**

3.1. Ta’lim sifatini oshirishda pedagogik kompetentlikni rivojlantirish yo‘llari

3.2. Pedagogning mahorati, shaxsiy-kasbiy malakalari

Ta’lim sifatini oshirishda pedagogik kompetentlikni rivojlantirish yo‘llari va pedagogning mahorati, shaxsiy-kasbiy malakalari. Pedagog faoliyatiga kreativ yondoshuvi. O‘qituvchining ijodkorlik sifatlari. Innovatsion jarayon: pedagog va uning faoliyati. Pedagogning kompetensiyaviy piramidası. O‘qituvchi pedagogik faoliyatida kasbiy refleksiyaning o‘rni.

**4-mavzu. Pedagogning autopsixologik professional kompetentligini rivojlantirish usullari**

**Reja**

4.1. Pedagogning autopsixologik kompetensiyalari

4.2. Professional kompetentligini rivojlantirish usullari

Pedagogning o‘z hissiyotini boshqara olishi va sog‘lom shaxsni shakllantirishda tarbiya turlari, shakllari, usullari va vositalari.

Didaktik, akademik, pertseptiv, nutq qobiliyati, tashkilotchilik, refleksiv va empativ qobiliyatini rivojlantirish. Pedagogik xayol. Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati. Ta’lim samaradorligini rivojlantirish qonuniyati, mexanizmi va texnologiyalari. Ta’lim jarayonida nizoli vaziyatlarni oldini olish.



# **MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI**

### “SWOT- tahlil ” metodi .

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength)	<b>kuchli tomonlari</b>  ( tekst )
W – (weakness)	<b>saif, kuchcis tomonlari</b>  ( tekst )
O – (opportunitu)	<b>imkoniyatlari</b>  ( tekst )
T – (tnreat)	<b>to'siqlar</b>

**Namuna:** Sport ta'lim muassasalari faoliyatini boshqaruv uclublarining SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

S	Liberal uslubining tomonlari  • • •	W	Liberal uslubining tomonlari  • • •
O	Liberal uslubining imkoniyatlari  • • •	T	Liberal uslubining to'siqlari  • • • •

### Xulosalash» (Rezyume, Veer) metodi

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda tinglovchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlil qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

#### Metodni amalga oshirish tartibi:



o‘qituvchi tinglovchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi



Dars maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhgaga umumiyligi muammoni tahlil qilinishi zarur bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi.



har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi.



navbatdagi bosqichda barcha guruhlarni o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar. Shundan so‘ng, o‘qituvchi tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlar bilan to‘ldiriladi va mavzu yakunlanadi

**Boshqaruv uslublari**

Avtoretar		Demokratik		Liberal	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
•	•	•	•	•	•
•	•	•	•	•	•
•	•	•	•	•	•
•	•	•	•	•	•

Xulosa:

**“Keys-stadi” metodi**

“Keys-stadi” – inglizcha so‘z bo‘lib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi.

**“Keys metodi”ni amalga oshirish bosqichlari**

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>• yakka tartibdagi audio-vizual ish;</li> <li>• keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda);</li> <li>• axborotni umumlashtirish;</li> <li>• axborot tahlili;</li> <li>• muammolarni aniqlash</li> </ul>
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> <li>• individual va guruhda ishlash;</li> <li>• muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash;</li> <li>• asosiy muammoli vaziyatni belgilash</li> </ul>
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> <li>• individual va guruhda ishlash;</li> <li>• muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish;</li> <li>• har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish;</li> <li>• muqobil yechimlarni tanlash</li> </ul>
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> <li>• yakka va guruhda ishlash;</li> <li>• muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash;</li> <li>• ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;</li> <li>• yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish</li> </ul>

Mazkur metod dastlab 1924 yil Garvard biznes mакtabida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida

## Pedagogning professional kompetentligi va mahorati

---

qo'llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeа-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/Qanaqa (How), Nima-natija (What).

### **“FSMU” metodi**

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma'ruba mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

qatnashchilarga mavzuga oid bo'lган yakuniy xulosa yoki g'oya taklif etiladi;  
har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog'ozlarni tarqatiladi:

ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

---

**Φ**

### **Fikringisni bayan eting**

---

**C**

### **Fikringisni bayaniga sabab ko'rsating**

---

**M**

### **Fikringisga misol keltiring**

---

**Y**

### **Fikrlaringisni umumlashtirining, hulosalang**

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

### **“Assesment” metodi**

**Metodning maqsadi:** mazkur metod tinglovchilar bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali tinglovchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashxis qilinadi va baholanadi.

### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

“Assesment”lardan ma’ruza mashg‘ulotlarida tinglovchilarning mayjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

### **“Tushunchalar tahlili” metodi**

Metodning maqsadi: mazkur metod tinglovchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;

tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar,

tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi ( individual yoki guruhli tartibda);

tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;

belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;

har bir ishtirokchi berilgan tug‘ri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaysa, farqlarini aniqlaysa va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

**Namuna:** “Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili”

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?	Qo‘shimcha ma’lumot
Etakchi		
Peshqadam		
Lider		
Boshliq		
Boshqaruvchi		
Menejer		
Rahbar		

**Izoh:** Ikkinci ustunchaga tinglovchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo‘shimcha ma’lumot glossariyda keltirilgan.

### **Venn Diagrammasi metodi**

Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavvurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

### **Metodni amalga oshirish tartibi:**


ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga

## Pedagogning professional kompetentligi va mahorati

ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;

navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a’zolarini tanishtiradilar;

juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.



### “Klaster” usuli

Klaster – axborot xaritasini tuzish yo‘li - barcha tuzilmaning mohiyatini markazlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g‘oyalarni yig‘ish hisoblanadi.

Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo‘yicha yangi o‘zaro bog‘lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi.

#### Tinglovchilar:

1. Yozuv taxtasi yoki katta qog‘oz varag‘ining o‘rtasiga “Rahbar” degan mulohaza uchun mavzu yoziladi. Klasterni tuzish qoidasi bilan tanishadilar.
2. Birikma bo‘yicha asosiy so‘z bilan uning yonida mavzu bilan bog‘liq so‘zlar kichik doirachalar “yo‘ldoshlar” yozib qo‘shiladi. Ularni “asosiy” so‘z bilan chiziqlar yordamida birlashtiradilar. Bu “yo‘ldoshlardan” “kichik yo‘ldoshlar” chiqariladi. Yozuv ajratilgan vaqt davomida yoki g‘oyalar tugagunicha davom etishi mumkin.
3. Muhokama uchun klasterlar bilan almashinadilar.



## NAZARIY MATERIALLAR

## 1-MAVZU. PEDAGOG FAOLIYATNING MAQSAD VA VAZIFALARI

### Reja

- 1.1. Pedagog faoliyatning maqsadi
- 1.2. Pedagog faoliyatning vazifalari

**Tayanch iboralar:** qonunlar, qonunosti hujjatlari, pedagog faoliyati, vazifalar, huquq va majburiyatlar, pedagogik mahorat, didaktika

### 1.1. PEDAGOG FAOLIYATNING MAQSADI

**maktabgacha ta’lim muassasalarida** – boshlang‘ich gimnastika va harakatli o‘yinlar bo‘yicha mashg‘ulotlar olib borish orqali jismoniy rivojlantirish hamda salomatlikni mustahkamlash uchun tarbiyalanuvchilarda jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlariga qiziqishni shakllantirish;

**umumta’lim maktablarida** – o‘quvchilar orasidan jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini jalb qilgan holda iste’dodli yoshlarni saralab olish (selektsiya) hamda bolalar va o‘smirlar sport maktablari sport zaxirasini shakllantirish maqsadida keyinchalik mintaqaviy sport musobaqalarida ishtirok etish uchun sinfdan tashqari sport to‘garaklari va sektsiyalari mashg‘ulotlarini tashkil etish (haftasiga kamida 4 soatdan);

**o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim muassasalarida** – o‘quvchilar orasidan jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini va sport turi bo‘yicha trenerlarni jalb qilgan holda iste’dodli yoshlarni saralash va ixtisoslashtirilgan bolalar va o‘smirlar sport maktablari sport zaxirasini shakllantirish maqsadida keyinchalik mintaqaviy hamda respublika sport musobaqalarida ishtirok etish uchun olimpiya va milliy sport turlari bo‘yicha sinfdan tashqari sport to‘garaklari hamda sektsiyalari mashg‘ulotlarini tashkil etish (haftasiga kamida 6 soatdan);

**oliy ta’lim muassasalarida** – iste’dodli yoshlarni saralab olish (selektsiya) va sport turlari bo‘yicha milliy terma jamoalari hamda respublika oliy sport mahorati maktablari sport zaxirasini shakllantirish maqsadida keyinchalik respublika va xalqaro sport musobaqalarida olimpiya va milliy sport turlari bo‘yicha talabalar sport klublari hamda jamoalarini tashkil etish.

Bugungi kunda respublikamizda trenerlarning xuquqiy faoliyati 2015 yil 4 sentyabrda tasdiqlangan “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida (yangi tahrirda)”gi **O‘RQ-394-son** Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi hukumati va tegishli vazirliklarning boshqa qonun osti hujjatlari asosida aniq ko‘rsatib berilgan.

“Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida (yangi tahrirda)”gi Qonunning **29** moddasi “Ta’lim tizimida jismoniy tarbiya va sportni tashkil etish” ga qaratilgan bo‘lib, unda quyidagilar belgilab berilgan.

Ta’lim tizimida jismoniy tarbiya va sportni tashkil etish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- ✓ asosiy ta’lim dasturlari doirasida davlat ta’lim standartlari bilan belgilangan hajmlarda jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha majburiy mashg‘ulotlarni, shuningdek qo‘sishimcha ta’lim dasturlari doirasida qo‘sishimcha (fakultativ) jismoniy mashqlar va sport mashg‘ulotlarini o’tkazish;
- ✓ ta’lim oluvchilarni jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlariga jalb etish uchun shart-sharoitlar yaratish, shu jumladan yoshlarning jismoniy tarbiya-sport tayyorgarligi bo‘yicha tadbirlar majmuini o’tkazish uchun sport jihozlari va anjomlari bilan ta’minlash;
- ✓ ta’lim oluvchilarda individual qobiliyatlari va sog‘lig‘i holatini hisobga olgan holda jismoniy tarbiya va sport ko‘nikmalarini shakllantirish;
- ✓ o‘quv mashg‘ulotlari paytida jismoniy tarbiya tadbirlarini amalga oshirish;
- ✓ ta’lim oluvchilarning jismoniy tarbiyasi tashkil etilishi ustidan tibbiy nazorat olib borish;
- ✓ ota-onalarda yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarda bolalarining sog‘lig‘i va ularning jismoniy tarbiyasiga nisbatan mas’uliyatli munosabatni shakllantirish;
- ✓ bolalar va yoshlarning jismoniy tayyorgarligini hamda jismoniy rivojlanishini har yili monitoring qilish;
- ✓ ta’lim oluvchilar ishtirokida sport tadbirlarini, shu jumladan xalq ta’limi tizimining ta’lim muassasalari o‘quvchilari (“Umid nihollari”), o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘quvchilari (“Barkamol avlod”) hamda oliy ta’lim muassasalari talabalari (“Universiada”) ishtirokida uch bosqichli sport musobaqlari tashkil etilishi va o’tkazilishiga ko‘maklashish”.

### Jismoniy tarbiya instruktori faoliyatining maqsad va vazifalari

“Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida (yangi tahrirda)”gi Qonunning 3-modda asosiy tushunchalar sifatida:

**jismoniy tarbiya** – madaniyatning insonni jismoniy tarbiyalash, jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlik orqali jismoniy hamda intellektual jihatdan kamol toptirish, uning qobiliyatini va harakat faolligini takomillashtirish, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirish, ijtimoiy moslashtirish maqsadida jamiyat tomonidan yaratiladigan hamda foydalaniladigan qadriyatlar, normalar va bilimlar yig‘indisidan iborat bo‘lgan qismi;

**jismoniy tarbiyalash** – yuksak madaniyatga ega bo‘lgan har tomonlama etuk hamda jismonan sog‘lom insonni shakllantirish maqsadida shaxsni tarbiyalashga, insonning jismoniy imkoniyatlarini rivojlantirishga, uning jismoniy tarbiya va sport sohasida malaka va bilimlarini orttirishga qaratilgan jarayon;

**jismoniy tarbiya yoki sport tadbiri tashkilotchisi** – o‘z tashabbusi bilan jismoniy tarbiya yoki sport tadbiri o’tkazayotgan va (yoki) bunday tadbirni tayyorlash hamda o’tkazishni tashkiliy, moliyaviy va moddiy jihatdan ta’minlashni amalga oshirayotgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

**trener** – trenerlik faoliyati bilan shug‘ullanish uchun ruxsatnomaga ega bo‘lgan hamda o‘quv-mashq, ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarini o’tkazishni,

shuningdek sport natijalariga erishish uchun bellashuv faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiruvchi jismoniy shaxs” deb ta’rif berilgan.

**O’zbekiston milliy sport turlari va xalq o‘yinlari** – milliy ijtimoiy-madaniy yo‘nalishga ega bo‘lgan hamda O’zbekiston Respublikasi hududida rivojlanayotgan sport va o‘yin turlari;

Quyidagilar  faoliyatining asosiy **maqsadi** hisoblanadi:

- ✓ bolalarga sportga muhabbatni singdirish;
- ✓ o‘sib kelayotgan avlodda sport bilan shug‘ullanish, sog‘lom turmush tarzini olib borish, jismoniy va ma’naviy komillikka intilish muhimligi tushunchasini shakllantirish;
- ✓ bolalarni salbiy ta’sirlardan himoya qilishga va zararli odatlardan xalos etishga doir chora-tadbirlar majmuini amalga oshiradi.

Quyidagilar  asosiy **vazifalarini** hisoblanadi:

- ✓ bolalarni jismoniy tarbiyalashning zamonaviy shakllari hamda usullarini;
- ✓ bolalarning jinsi va yoshiga qarab ularga sport ko‘nikmalarini singdirishning;
- ✓ sportga qobiliyatli bolalarni ixtisoslashtirilgan sport ta’lim muassasalarida o‘qitish uchun tanlab olishning ilmiy asoslangan tizimlarini ishlab chiqishni hamda joriy etishga ko‘maklashishni tashkil etadi.

**Jismoniy tarbiya instruktorining** asosiy **vazifasi** hisoblangan mashg‘ulotlarni tashkil etish va o‘tkazish Davlat talablari (o‘quv reja, dastur, darslik va qo‘llanma) asosida belgilanadi.

Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari ta’lim-tarbiya ishlarining asosiy tashkiliy shakli ekan, bu jarayonda quyidagilarga amal qilinishi lozim:

**1.** Mashg‘ulot qat’iy jadval bo‘yicha belgilangan aniq muddatda olib borilishi kerak.

**2.** Mashg‘ulot jismoniy tarbiya instruktori rahbarligida butun guruh (kichik, o‘rta, katta, tayyorlov) bilan va alohida tarbiyalanuvchilar bilan ishlash shaklida olib boriladi.

**3.** Mashg‘ulot o‘quv dasturi mazmuniga qarab turli metod va vositalarda olib boriladi va ta’lim tizimining bir qismi sifatida tugallangan bilim va ko‘nikma beradi va navbatdagi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirmoq uchun zamin yaratadi.

**Mashg‘ulot** – ta’limning asosiy shakli ekan, u ilmiy, tizimli, tushunarli, ongli va faol bo‘lishi, bilimlar mustahkam o‘zlashtirilishi va amaliy ko‘nikmalar shakllanishi o‘quvchining shaxsiy xususiyatlari e’tiborga olingan holda tashkil etilishi mashg‘ulot oldiga qator didaktik talablarni qo‘yadi.

**Jumladan:**

## Pedagogning professional kompetentligi va mahorati

---

- 1.** Har bir mashg‘ulot aniq maqsadni ko‘zlagan holda puxta rejalarshirilmog‘i lozim. Bu jarayonda murabbiy mashg‘ulotning ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadini belgilaydi.
- 2.** Mashg‘ulot bosqichlarini to‘g‘ri taqsimlay olish lozim. Ya’ni mashg‘ulotni qanday boshlash, uni o‘tkazish va qanday tamomlash oldindan hal qilib olinishi kerak.
- 3.** Mashg‘ulot o‘tiladigan joy sanitar-gigienik talablarga javob berishi kerak.
- 4.** Har bir o‘quvchi texnika xavfsizligi qoidalari bilan tanishtirilishi shart.
- 5.** Har bir mashg‘ulot mavzuga mos ravishda o‘quvchilar soni va yoshiga mos ravishda kerakli vositalar bilan jihozlanmog‘i lozim.
- 6.** Har bir mashg‘ulot aniq g‘oyaviy, mafkuraviy izlanishga ega bo‘lishi lozim. Murabbiy esa ulardan tarbiyaviy maqsadda tarbiya metodlaridan samarali foydalanmog‘i lozim.
- 7.** Har bir mashg‘ulot xarakteriga mos usul, shakl va vositalardan samarali foydalanilgan holda tashkil etilishi lozim.
- 8.** Mashg‘ulot uchun ajratilgan soat va daqiqalarni tejash va unumli foydalanish darkor.
- 9.** Dars jarayonida murabbiy va o‘quvchi o‘zaro faol munosabatda bo‘lishi lozim.
- 10.** Mashg‘ulotlar butun guruh bilan va har bir o‘quvchi bilan, ularning shaxsiy xususiyatlari e’tiborga olingan holda olib borilish kerak.
- 11.** Mashg‘ulotning mazmuni va xarakteriga qarab xalqimizning boy ma’naviy merosidan va ma’naviy qadriyatlaridan samarali foydalanish.

## 1.2. PEDAGOG FAOLIYATNING VAZIFALARI

Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida “Pedagogning professional kompetentligi va mahorati” moduli negizida tinglovchilarni pedagogik mahorat asoslar bilan tanishtirish maqsadga muvofiqdir. Zero, tinglovchilar tomonidan pedagogik mahoratning tarkibiy elementlari bilan tanishtirish, ularda pedagogik texnika, nutq madaniyati, pedagogik deontologiya, kommunikativ qobiliyat, pedagogik nizo, shuningdek, zamonaviy pedagogning imidji to‘g‘risidagi ma’lumotlarning o‘zlashtirilishi va mazkur bilimlar negizida zarur malakalarning o‘zlashtirilishi sport ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik jarayon sifatini yaxshilash, samaradorligini ta’minlashni kafolatlaydi.

Mazkur modul bo‘yicha tinglovchilarni pedagogik mahorat va uning tarkibiy elementlari bilan tanishtirish jarayonida quyidagi vazifalar hal qilinadi:

- tinglovchilarni pedagogik mahoratning tarkibiy qismlariga doir nazariy bilimlar bilan qurollantirish;

## Pedagogning professional kompetentligi va mahorati

- tinglovchilarda pedagogik faoliyatni oqilona tashkil etish, pedagogik jarayonni samarali yo‘lga qo‘yish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish;
- tinglovchilarning pedagogik va nutq texnikasiga ega bo‘lishlarini ta’minlash;
- tinglovchilarda pedagogik deontologiya va pedagogik madaniyat sifatlarini tarkib toptirish, pedagogik qobiliyatni rivojlantirish;
- tinglovchilar tomonidan pedagogik muloqot, pedagogik nazorat (takt) va pedagogik ta’sir ko‘rsatish malakalarini etarli darajada o‘zlashtirilishini ta’minlash;
- tinglovchilarda pedagogik madaniyat sifatlarini shakllantirish.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari jismoniy tarbiya instruktorlarining kasbiy mahoratlari haqida so‘z yuritishdan avval “mahorat” va “pedagogik mahorat” tushunchalarining mohiyati bilan tanishib olish maqsadga muvofiqdir.

O‘z kasbining sirlarini chuqur biladigan, o‘z kasbining ustasi bo‘lgan, dunyoviy va diniy bilimlarga ega, olimkor va tadbirkor, tashkilotchi va fidoiy, vatanparvar va mehribon, bag‘rikenglik va xayrixohlik xislatlariga ega bo‘lgan, bilganlarini boshqalarga o‘rgatishga va metodik yordamga muhtojlarga yordamini ayamaydigan shaxslar haqida gapirilganda “U mahorathi va mehribon” degan so‘zdan foydalaniladi.

**Mahorat** “mahorat” – mohirlilik, ustalik, epchillik) – bir ish yoki faoliyatni yuksak darajada, hech bir qiyinchiliksiz, o‘ta mohirlilik bilan bajarish..

**Mahorat** – shaxsning tajriba orqali orttirilgan xususiyati. Biror sohadagi moslashuvchan ko‘nikma va ijodkorlik asosida hosil bo‘lgan kasbiy ko‘nikmalarning yuqori darajasi, kasbiy mohirlilik. Biror faoliyat sohasidagi yuqori darajada egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliyotda yuqori sifat va samaradorlik bilan qo‘llash.

**Pedagogning mahorati** – bu bolalar bilan ishlashni seva oladigan, har bir pedagog uchun zarur bo‘lgan bilim berish va tarbiyalash san’atining takomillashgan va yuqori cho‘qqisi. O‘z ishining ustasi bo‘lgan pedagog – bu yuqori madaniyatli mutaxassis, o‘z o‘quv fanini chuqur biladigan, fan yangiliklari bilan tanishadigan, bolalar psixologiyasini amaliy biladigan, ta’lim-tarbiya metodikasini yuqori darajada egallab olgan shaxs.

Jismoniy tarbiya instruktori esa pedagogik mahorat sirlarini o‘rganishi va yuksak natijalarga erishishi uchun, avvalo tarbiyalanuvchilarni o‘rgatish, ma‘lumotli qilish va tarbiyalashning eng qulay, oson, ko‘p natija beradigan yo‘llarini izlab topish va qo‘llashga harakat qilmog‘i, ta’lim va tarbiyasining, shakl, usul va vositalaridan unumli foydalanish kerak.

Bolalarni seva olish, ularga o‘z ota-onalaridek mehribonlik ko‘rsata bilish mohir jismoniy tarbiya instruktorining muhim shaxsiy fazilatlaridan biridir. Jismoniy tarbiya instruktori har doim, hamma vaqt tarbiyalanuvchilarga mehribonlik ko‘rsata olishi lozim. O‘z tarbiyalanuvchisi to‘g‘risida shoshma-shosharlik bilan xulosa chiqarmaslik, ular haqida salbiy yoki ijobiy fikrga kelmaslik kerak. Tarbiyalanuvchilar orasida uning “sevimli” yoki “yomon” ko‘radigan bolalarni bo‘lishi bolada jismoniy tarbiya instruktoriga bo‘lgan hurmatni so‘ndiradi. Har qanday bo‘sh va past o‘zlashtiradigan, “tarbiyasi qiyin” tarbiyalanuvchi bilan

## Pedagogning professional kompetentligi va mahorati

ishlaganda jismoniy tarbiya instruktorining vazifasi shundan iboratki, tarbiyalanuvchidagi ana shu bilinar bilinmas lekin eng muhim ijobiy fazilatni topa olish va shu fazilatga tayanib bola xotirasidagi, o'tmishidagi salbiy xususiyatlarni tugatishga intilmog'i lozim. Jismoniy tarbiya instruktori shaxsiy fazilatlari tizimida pedagogik faoliyatga bo'lgan ehtiyoj nomli muhim kasbiy yo'naliш mavjudki, u pedagogik mahoratni egallash uchun katta rol' o'ynaydi.

Bunday **professional xususiyatlarni S. Baranov** va boshqalar shunday izohlaydilar: Pedagogik faoliyatga bo'lgan ehtiyoj professional mahoratdagi jismoniy tarbiya instruktori shaxsiy fazilatlarini belgilovchi qimmatli bahodir, u o'zida: “...**bolalarga qiziqish va muhabbatni; pedagogni ishga havasni; psixologik-pedagogik ziyraklik va kuzatuvchanligini mujassamlashtiradi**”.

Jismoniy tarbiya instruktorining o'quvchilarga nisbatan mehribonligi, hayrixohligi bolalarni sevishi insoniy talabchanlik asosida ko'rilmog'i lozim, insonparvarlikka asoslangan talabchanlik o'quvchilarni intizomga chaqiradi, o'z hulq-atvori to'g'risida o'ylashni, o'ziga boshqalar ko'zi bilan qarashni, salbiy xususiyatlarini qayta tarbiyalashni, ijobiy fazilatlarini takomillashtirishni yo'lda qo'yishga da'vat etish muddaosiga erishadi. Buning uchun jismoniy tarbiya instruktori talabning me'yорини bilishi lozim. Talab istiqbolli bo'lib, bolaning kelajak hayoti, sport faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan, bolalarni sportga qiziqishlarini takomillashtiruvchi yo'naltirilgan bo'lsagina, maqsadga muvofiq bo'ladi. **L. Ruvinskiy** tahriri ostida chop etilgan “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” qo'llanmasida talablarning bir necha shakllari ko'rsatib o'tilgan, jumladan, iltimos shaklidagi talab, ishonch bilan talab qilish, talab-ma'qullah, talab-maslahat, o'yin shaklidagi talab, talab-sha'ma, shartli-talab, qoralovchi talab, ishonchsizlik asosidagi talab, talab qo'rqtish va boshqalar.

Jismoniy tarbiya instruktori **shaxsiy sifatining** yana bir ko'rinishi “uning shaxsiy namunasidir. O'tmis mutafakkirlari “mehnat shaxsni shakllantiradi” deb da'vat etgan edilar. Darhaqiqat, jismoniy tarbiya instruktorining shaxsiy namunasi tarbiyalanuvchi uchun hayot darsligi vazifasini o'taydi. Shaxsiy namuna o'z ishiga bo'lgan munosabatda, tarbiyalanuvchilarni, tushunish, hurmat qilish, talabning me'yorda bo'lishida namoyon bo'ladi. Jismoniy tarbiya instruktorining shaxsiy namunasi har qanday pedagogik jamoadagi munosabati bilan, belgilanadi. Shuning uchun jismoniy tarbiya instruktori sinchkov, ziyrak, chidamli, sabr-toqatli, o'zini tuta biladigan, xayrixoh, muntazam o'z hissiyotini, faoliyati, xulq-atvorini nazorat qila oladigan kishi bo'lishi lozim. Shundagina ish ham, tarbiya ham unumli bo'ladi. Tarbiyalanuvchilar o'zlarining qilgan ishlari, xulq-atvorlariga qo'yiladigan bahoga ziyraklik bilan kuzatuvchan bo'ladilar. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagি bolalar jismoniy tarbiya instruktorining qay holatlarida haq, qay vaziyatlarda u nohaq ekanligini aniq baholaydigan bo'ladilar. Munosabatda xulq-atvorda vazminlik og'ribbosiqlik, talabda ob'ektivlik hozirgi davr jismoniy tarbiya instruktorining muhim shaxsiy sifatlaridan biridir.

Jismoniy tarbiya instruktorining **shaxsiy fazilatlarini** uning kasbiy xususiyatlari to'ldirsa, u kasbiy mahorat pillapoyalari sari yana ilgari odimlaydi. Yuqorida qayd qilib o'tganimizdek, jismoniy tarbiya instruktori kasbiy mahoratini,

uning bilimdonligi pedagogik-psixologik, metodik tayyorgarligi, erudutsiyasi, ijodkorligi, tarbiyalanuvchilarni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo‘llarini izlab topishi kabi malakalar tashkil etadi. Pedagogik mahoratning bu malakalari insonparvarlik, kasbiy bilimlar, pedagogik texnika, pedagogik qobiliyat mazmunida tarkib topib boradi. Jismoniy tarbiya instruktori pedagogik mahoratining bunday tarkibiy qismlari jismoniy tarbiya instruktorining g‘oyaviy-siyosiy tayyorgarligi, o‘quv predmetining ilmiy-nazariy va amaliy asoslari bilan qurollanish, muntazam mustaqil bilim olishga intilishi kabi xususiyatlar bilan to‘ldiriladi.

Komponentlar o‘zaro pedagogik mahoratning mazmunini tashkil etadi. Izohlab o‘tilgan jismoniy tarbiya instruktorining shaxsiy va kasbiy sifatlari, uzviy bog‘liqlikda shakllanib takomillashib boradi. Ular pedagogik faoliyat zaminida mustahkamlanar ekan tarbiyalanuvchilar bilan bo‘lgan munosabatlarda, ularning qalbini bilishga intilishda, o‘z shaxsiy va kasbiy faoliyatini muntazam nazorat va tahlil qilishda namoyon bo‘ladi. Mabodo jismoniy tarbiya instruktori pedagogik kasbni faqat tarbiyalanuvchilarga jismoniy tarbiya bo‘yicha bilim berish, ularni sportchi qilib tarbiyalashdan iborat deb bilsa, katta xatolikka yo‘l qo‘yadi. Shuning uchun u vaqtiga vaqtiga bilan o‘z ishlarini, muomalasini, munosabatlarini, xoh u ijobji bo‘lsin, xoh salbiy tahlil qilib borishga odatlanish kerak. Bulardan tashqari, kasbiy mahorat tizimida yana shunday masalalar, borki ularni bilmaslik, ularga e’tiborni qaratmaslik məktəbda ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish va amalga oshirishni qiyinlashtiradi, oqibat-natijada pedagogik mahoratni shakllantirish va uni takomillashtirish ishlariga sharoit yaratilmaydi.

Pedagogik entsiklopediyada pedagogik mahoratga quyidagicha ta’rif berilgan: “Pedagogik mahorat – o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lgan, yuksak darajada madaniyatli, o‘z fanini chuqur biladigan, yondash fanlar sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o‘qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassis”.


**Pedagogik mahorat** yaxlit tizim sifatida quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo‘ladi.

pedagog shaxsini **insonparvarlik** yo‘nalishiga ega bo‘lishi, uning qiziqishlari, qadriyat yo‘nalishalari va ideallarining oliy maqsad-barkamol avlod tarbiyalab etishtirishga yo‘naltirilganligi;

**kasbiy bilimlar**, ya’ni mutaxassislik fanlari, o‘qitish metodikasi, pedagogika-psixologiyadan mukammal bilimga ega bo‘lish;

**pedagogik qobiliyat**ga ega bo‘lish (muloqotga moyillik, ishchanlik, keljakni tasavvur qila olish, kasbiy mustaqillik, sensor axborotlarni tezlik bilan anglash (yuzidan o‘qib olish);

**pedagogik texnika**ni egallah, ya’ni o‘z-o‘zini boshqara olish, o‘zaro ta’sir etish va hamkorlikda ishlashni uddalash.



## 2.1-rasm. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari

Pedagogik mahorat o‘ziga bolalar haqidagi, ularning psixologiyasi to‘g‘risidagi, maktab haqidagi, ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va uning mazmuni, metodlari haqidagi keng bilimlarni qamrab oladi. Bu bilimlar umumiy pedagogik madaniyatni tashkil etadi, jismoniy tarbiya instruktori, tarbiyachi bu madaniyatni egallamasa, hech vaqt o‘z ishining chinakam ustasi bo‘la olmaydi, yomon, eski usuldan, bir qolipdagi tayyor andozalarni ishlatalishdan nariga o‘tmaydi.

Biroq, zamonaviy jismoniy tarbiya instruktoriga bиргина umumiy madaniyatning o‘zi kifoya qilmaydi. Maxsus bilimlar va malakalar – bolalarni kuzatish, ularning o‘sishdagi muhim narsalarni aniqlay olish, ularni rivojlantirish yo‘llari va usullarini aniqlash, turli o‘zaro ta’sirini chuqr tahlil qilish, pedagogik izlanishlar va yutuqlarni ilmiy jihatdan bir tizimga solish malakalari zarur bo‘ladi.

Pedagogik takt talablariga amal qilgan jismoniy tarbiya instrukturilarga o‘zida demokratik muloqot uslubini shakllantirishi, o‘quvchilar bilan haqiqiy muloqot madaniyatiga erishishi mumkin.

**Takt** so‘zini aynan ma’nosi tegib turish, daxldor bo‘lish demakdir. U odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni saqlab turuvchi ahloqiy toifadir.

Insoniylik printsipliga asoslangan holda taktli ahloq – eng murakkab holatlarda ham inson hurmatini oqlashni talab etadi.

**Pedagogik nazokat (takt)** – bu o‘qituvchining o‘quvchiga ta’sir etishi pedagogik jihatdan muvofiqlik o‘lchovi, eng samarali muloqot uslub o‘rnatishiga bog‘liqdir.

Taktli (odobli) bo‘lish-har bir inson, ayniqsa kamol topayotgan yoshlar bilan ishlaydigan pedagoglar uchun muhim ahloqiy talabdir. Pedagogik takt jismoniy tarbiya instruktorining professional sifati, pedagogik mahoratining muhim qismidir. Pedagogik takting o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, u faqat jismoniy tarbiya

## Pedagogning professional kompetentligi va mahorati

---

instruktori shaxsi xususiyatini (xushmuomalalik, o‘quvchini sevish, hurmat qilish) anglash, balki tarbiyalanuvchi ko‘ngliga to‘g‘ri yo‘l topa olishini ham bildiradi.

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Pedagogik faoliyatining huquqiy asoslarini asoslab bering.
2. Jismoniy tarbiya instruktori faoliyatining maqsad va vazifalari qanday?
3. Pedagogik faoliyatni tashkil etish yuzasidan tushuncha bering.
4. Mahorat va pedagogik mahorat tushunchalari farqlab bering.
5. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari qanday?

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalahtirish: O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Innovatsion ta’lim texnologiya seriyasi. – T.: “Iqtisodiyot” nashr., 2011. – 206 b.
2. Ishmuhamedov R., Mirsolieva M. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. –T.: “Fan va texnologiya”, 2014. – 60 b.
3. Serova, L.K. Psixologiya lichnosti sportsmena: ucheb.posobie dlya akademicheskogo bakalavriati / L.K. Serova. – 2-e izd., ispr. i dop. – M.: Izdatelstvo Yurayt, 2019. – 124 s.
4. Hoshimova M.K. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat / Ma’ruzalar matni. – T.: TDIU, 2012. – 50 b.
5. Azizzodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. –T.: Moliya, 2003. – 192 b.
6. Pedagogika. Izohli lug‘at / O‘.Asqarova va b. – Namangan: “Navro‘z”, 2014. – 263 b.
7. Pedagogika / Nopedagogik oliy ta’lim muassasalari uchun darslik. U.I. Inoyatov, N.A. Muslimov, D.I. Ro‘zieva, M.H. Usmonboeva. – T.: “Fan” nashriyoti, 2012. – 246 b.
8. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob / Metodik qo‘ll. U.I. Inoyatov, N.A. Muslimov, M.H. Usmonboeva, D.Inog‘omova. – T.: TDPU, 2012. – 193 b.

## 2-MAVZU.

### TA'LIM-TARBIYA JARAYONI SIFATINI OSHIRISHDA PEDAGOG KOMPETENTSIYASINING O'RNI VA UNING TURLARI. KASBIY KOMPETENTSIYA MODELI

#### Reja:

*2.1. Ta'lism-tarbiya jarayoni sifatini oshirishda pedagog kompetentsiyasining o'rni va uning turlari.*

*2.2. Kasbiy kompetentsiya modeli.*

*2.3. "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturida "Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish" sohasi kompetentsiyalari.*

**Tayanch iboralar:** pedagogik faoliyat, kompetentsiya, kompetentlik nazariyalari, kompetentsiya turlari, kasbiy kompetentsiya, pedagogik kompetentsiya, shaxsiy kompetentsiya, kasbiy kompetentsiya piramidasi, ilk qadam dasturi.

#### 2.1. TA'LIM-TARBIYA JARAYONI SIFATINI OShIRISHDA PEDAGOG KOMPETENTSIYASINING O'RNI VA UNING TURLARI

Zamonaviy fanda xodimlarni boshqarish nazariyasi va amaliyotini tahlil qilishda kompetentsiya tushunchasiga muhim ahamiyat berilmoqda. **Kompetentsiya** – xodimning kompaniya kutayotgan darajada va belgilangan tarkibda ishlab chiqarish xulqini muntazam ravishda namoyish qilishga tayyorlik qobiliyati. Kompetentsiyalar tizimini yaratishda tashkilot xodimlarning faoliyatiga taalluqli muhim mezonlar majmuasini standart talablarga asosan tuzadi. Shuningdek, kompetentsiya xodimlarning tashkilotda ham professional, ham ijtimoiy jihatdan tengligi xususida guvohlik beradi.

XX asrning 90-yillarida mutaxassislarga malakaviy talablarni quyuvchi Xalqaro mehnat tashkiloti malaka oshirish hamda boshqaruv xodimlarni kasbiy qayta tayyorlashda "**tayanch kompetentsiya**"lar degan tushunchani fanga kiritdi. Tayanch kompetentsiyalar turli xil kasbiy birlashmalarda mutaxassislarning ijtimoiy-professional jihatdan ta'minlanishi hamda faoliyatga moslashishida xodimlarning xizmat vazifalaridan kelib chiqib o'ziga xos xarakter kasb etadi.

#### **Kompetentlik nazariyasi va uning bosqichlari**

"Ijtimoiy psixologiya" va "ijtimoiy pedagogika" fanlariga daxldor so'nggi yillarda nashr etilgan ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, "**kompetentlik nazariyasi**", asosan, **to'rt bosqichli** jarayonni, ya'ni anglanmagan kompetentsizlikdan anglanmagan kompetentlikka o'tish jarayonini o'z ichiga qamrab oladi. Biz buni batafsilroq tarzda psixologik nuqtai nazardan bayon etadigan bo'lsak quyidagicha tahlilning guvohi bo'lamiz:

**Anglanmagan kompetentsizlik bosqichi:** Sohaning etakchi mutaxassislari

(S.Torp, J.Klifford, 2004)ni fikricha, anglanmagan kompetentsizlikda, shaxs hech narsani bilmaydi (yoki hech narsa qila olmaydi). Misol qilib aytganda, shaxs “**Men – hech narsa bilmasligim haqida, hech narsa bilmayman**” darajasida turadi. Balki, bu shaxs amaliyotda bunga ehtiyoj sezmayotgandir yoki bu bilim va malakaga ehtiyoji yo‘qdir. Shuning uchun bunday sharoitlarda u shaxsiy kompetentligiga bo‘lgan zaruriyatni his qilmaydi. Shu o‘rinda yana bir misol: ilk go‘daklik chog‘larida bola engil mashinada bir erdan boshqa erga borishni sayohat omili deb biladi, ammo bu holatda u o‘zining mashina boshqara olmasligini bilmaydi va shu tarzda o‘zining shaxsiy kompetentligini anglay olmaydi.

**Anglanilgan kompetentsizlik bosqichi:** Anglanilgan kompetentsizlikda shaxs “bilmasligi” haqidagi bilimni kashf qiladi. Odatda bu jarayon biror-bir harakatni bajarish istagi yoki ehtiyoji tug‘ilishi oqibatida yuzaga keladi. Bu bosqich “**Men bilmasligim haqida bilaman**” deb nomlanadi. Masalan: mashina boshqarishni bilmaydigan o‘smir, biron-bir kishidan o‘zini biror yoqqa olib borishini iltimos qilishiga to‘g‘ri keladi va bunda o‘zining mashina boshqara olmaslik kompetenti haqida fikr-mulohaza yuritgan holda “o‘z ustida” qayg‘uradi.

**Anglangan kompetentlik bosqichi:** Kompetentlikni anglanishi uchun shaxs biron-bir (rasmiy yoki norasmiy) o‘qishda tahsil olishi lozim. Bu bosqichda u, asosan, o‘qituvchining xatti-harakatlarini o‘zlashtiradi (agar uning xotirasi bunga imkon bersa). Har lahzada shaxs qilayotgan ishini anglaydi yoki “**nima bilishi haqida biladi**”. Masalan, kurslarni muvaffaqiyatli tamomlagan va haydovchilik guvohnomasi olgan 18 yoshli yigit (haydovchi) yo‘lga chiqishdan oldin mashinani to‘g‘ri boshqarish haqidagi bilimlarini mustahkamlaydi va o‘ziga-o‘zi quydagilarni pichirlaydi yoki xayolidan o‘tkazadi: “Hozir yonni yoki orqani ko‘rsatuvchi oynalarga qarayman, oldimdan chiqqan jonli to‘sinqqa signal beraman, borishim zarur bo‘lgan ob‘ektni joylashishi ko‘ra yoki harakat traektoriyasi bo‘yicha o‘ngga-chapga burilaman va hokazo”.

**Anglanmagan kompetentlik bosqichi:** Anglanmagan kompetenlikda shaxs o‘zidagi mavjud bilim va ko‘nikmalarini shu darajada ko‘p qo‘llaydi-ki, natijada bu odatiy holga aylanib qoladi. Endi bu shaxs har bir xatti-harakati davomida keyingi qadamni o‘ylamasdan bosadigan bo‘ladi yoki harakatlar algoritmi anglanmagan tarzda amalga oshiriladi (yoki bo‘lmasa bu harakat ong ostida bajariladi). Oqibatda shu shaxs: “**Men biladigan narsam haqida hech narsa bilmayman**”, – degan yakuniy xulosaga kelishi mumkin. Tasavvur qiling, siz farzandingizga mashina boshqarishni o‘rgatayapsiz. Mashinani boshqarish davomida siz ma’lum darajadagi harakatlaringiz mohiyatini tahlil qilmaysiz, sababi, bular sizning “qoningiz va jismingizga” singib ketgan bo‘ladi.

Demak, yuqoridagi to‘rt bosqichli nazariyada ilgari surilgan g‘oyaga asoslanadigan bo‘lsak, **kompetentlik** – ta’lim-tarbiya jarayonining uzluksizligini ta’minalash uchun, ya’ni muayyan kishilar (guruqlar) malakasini oshirish va ish(o‘qish)-faoliyatini yaxshilashda xuddi indikator sifatida xizmat qiladi.

## Pedagogning professional kompetentligi va mahorati

N.A. Muslimov (2009) kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashning samarali zamonaviy o‘quv-metodik majmuasini ishlab chiqish va amaliyatga tatbiq etish masalasi yuzasidan keng qamrovli tadqiqotlarni olib borar ekan, o‘z navbatida, kompetentlikni ettita turga bo‘lib o‘rganadi. Olimning fikricha,

- 1.** global kompetentlik;
- 2.** ijtimoiy-madaniy kompetentlik;
- 3.** ijtimoiy faoliyatga oid kompetentlik;
- 4.** axborot olishga kompetentlik;
- 5.** kommunikativ kompetentlik;
- 6.** o‘quv-bilishga oid kompetentlik;
- 7.** amaliy faoliyatga oid kompetentlik mavjud bo‘lib, bu o‘z navbatida, ta’lim muassasalarida yoshlarning shaxsiy rivojlanishi ularning mustaqil fikrlash, ijodkorlik, faollik, munosabatlarining chuqurlashib hamda boyib borishi, xarakter hamda dunyoqarashlarining turg‘unligi, o‘z-o‘zini nazorat qilish va tarbiyalashga bo‘lgan ehtiyojlarning shakllanishi kabi holatlar bilan tavsiflanadi.

Masalan, olim, o‘qituvchining ijtimoiy borliqni his eta bilishi va tushunishi qobiliyatini, mustaqil hayot yo‘lini topa olishini, o‘zining ijtimoiy jamiyatdagi roli va o‘rnini anglab etishini, harakatlarni tashkil etishda aniq maqsadni belgilashi hamda qaror qabul qilish malakasini mavjudligini hamda dunyoqarashining kengligini **global kompetentlik**, deb ta’rif beradi.

Fikrimizcha, shu jihatdan olib qaraganda ham, **kompetentlik** – inson faoliyatini uning eng yaxshi bajargan amallariga nisbatan baholashda yordam beradigan standart, deb aytish mumkin. Bunday baholanish, o‘z navbatida, tashkilot faoliyatini yaxlit holda ijobjiy tomonga o‘zgarishiga olib keladi. Oxir oqibat, muvaffaqiyat egalari – bu tashkilot, jamiyat va muayyan shaxslar hisoblanishadi.

### Kompetentsiyalarning aniqlanishi

**Kompetentsiyalar** – (1) tashkilot miqyosida qabul qilingan standart xulq-atvor; (2) menejerning tashkilot miqyosida qabul qilingan standartlarga muvofiq ish ko‘ra olish qobiliyati.

**Kompetentlik** (bilimdonlik) – (1) u yoki bu savolning javobidan xabardorlik; (2) ishda kerakli natijalarni qo‘lga kiritish yuzasidan zarur qarorlarni qabul qila olish qobiliyati.

Kompetentsiya shaxsning yurish-turishini baholashga oid bilimlar majmui bo‘lib, u orqali biz tashkilotni samarali rivojlanishi yo‘lida xodimning o‘z faoliyatini amalga oshirishida qanday darajadagi muvaffaqiyatlarga erishayotganligini aniqlashimiz mumkin. Kompetentsiyalarning mavjudligi odatda, shaxs xulq-atvorini o‘lchovchi (indikatorlar yordamida) muayyan holatlar orqali qayd qilinadi (yaxshi shakllangan xulqiy malakalar).

## Pedagogning professional kompetentligi va mahorati

Ko‘pincha kundalik muloqotda biz “kompetentsiya” yoki “bilimdonlik” tushunchalarini tez-tez ishlatamiz. Ayniqsa, “professional kompetentsiya” tushunchasi ko‘proq diqqatni tortadi. Lekin, ba’zan insonlar bilan ishlash borasida “kommunikativ kompetentsiya” tushunchasi ham ishlatiladi. Bu aslida o‘zgalar bilan til topisha bilish, o‘z nutqini ravon va bir tekisda tuzish orqali fikrlarini boshqalarga etkaza olish kabi muhim xususiyatlar bilan bog‘lanadi.

Umuman olganda, kompetentsiya *muayyan shaxs* doirasida o‘rganilganda, insonning rivojlantirishi zarur bo‘lgan kuchli tomonlarini, sifatlarini yuzaga chiqarishda va ishni eng yaxshi, samarali bajarish mumkin bo‘lgan usullarini aniqlashda yordam bersa, *tashkilot* miqyosida esa hamkasblarni o‘qitishga bo‘lgan ehtiyojlarni va berilgan maslahatlar natijasida to‘lmay qolgan “bo‘shliq”larni to‘ldirishda asqotadi.

### **Pedagogning kompetentsiyasi**

Mehnat bozorining o‘zgarib borishi, taraqqiyot jadallahuvi, axborot muhiti glabollashishi ta’sirida maktab bitiruvchisiga qo‘yilayotgan talablar murakkablashib boraveradi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy maktab o‘z faoliyatini tashkil etishda nafaqat bugungi davr talablarini inobatga olishi, balki ta’lim oluvchilarini ertangi kun talablariga ham tayyorlashi zarur.

Albatta, XXI asrning ikkinchi yarmida hayot qanday kechishi, qanday bilimlar kerak bo‘lishini shiddat bilan rivojlanib, o‘zgarib borayotgan zamonda aniq prognoz qilish qiyin. Shu bois maktab ta’lim oluvchilariga bilim berish bilan birga, ularda mustaqillik, tashabbuskorlik, hamkorlik, vaziyatni real baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va undan oqilona foydalanish, tez kirishuvchanlik xususiyatlarini shakllantirib, har qanday o‘zgarishlarga konstruktiv moslasha olish qobiliyatini rivojlantirib borish lozim.

Oldimizda turgan bu dolzarb vazifa mustaqil hayotiy pozitsiya, ijtimoiy faoliy, yuksak aqliy va ma’naviy salohiyatni shakllantirishga qaratilgan shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni hayotga yanada kengroq tatbiq etishni taqazo etadi.

Buning uchun jismoniy tarbiya va sport ta’limi muassasalarida faoliyat olib borayotgan har bir jismoniy tarbiya instruktorining tayanch kompetentsiyalarga ega bo‘lishi o‘ta muhim jarayondir.

“**Kompetentsiya**” tushunchasi lotincha **competere** degan so‘zdan olingan bo‘lib, **mos kelmoq** ma’nosini beradi.

**Kompetentsiya** – olingan nazariy bilim, amaliy ko‘nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar majmuasini amaliyatga mustaqil va ijodiy qo‘llay olish layoqati.

**Kompetentlik** (lotincha “competens” – “layoqatli”, “qobiliyatli”) deganda shaxs bilim, ko‘nikma va tajribalarining ijtimoiy-professional mavqeい va o‘ziga tegishli vazifalarni bajarish, muammolarni hal qilishga qodirligi hamda haqiqiy moslik darajasi tushuniladi.

**Kompetentlik** – aniq vaziyatda kompetentni namoyon qilish hisoblanadi. Kompetentlik tarkibiga mustaqillik, tashabbuskorlik, hamkorlik, vaziyatni real

baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va undan oqilona foydalanish xususiyatlari ham kiradi. Demak, kompetentsiyaviy yondashuv bilim, ko'nikma va malakani inkor etmagan holda, egallangan bilimlarni amalda qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi.

**Kasbiy kompetentsiya** – kasbiy faoliyatga oid masalalarni amaliy tajriba, bilim va ko'nikmaga tayanib muvaffaqiyatli xal eta olishga qaratilgan faoliyat.

Boshqacha qilib aytganda, **kompetentsiya** – zarur (ko'zlangan) natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan faoliyat.

Tushuncha va tasavvurlar shaklidagi insonning bilish faoliyatining tuzilmasidan farqli o'laroq, kompetentsiya faoliyat jarayonida namoyan bo'ladi va aniqlanadi.

Amalda **kompetentlik** – bilim mahsuli bo'lib, amaliyotda qo'llay bilish qobiliyati.

Shuningdek, kompetentsiya, bilimdan farqli, amaliy faoliyatsiz namoyan bo'lmaydi va uni baholay olish mumkin emas.

Kompetentlikning asosiy mezoni (kriteriya) turli holatlarda, shu bilan birga asabiy vaziyatlarda ham, o'zini tuta bilishning namoyon bo'lishidir. Uning tasodifiy muvaffaqiyatli qo'llanilishi hisobga kirmaydi.

Yana bir bor ta'kidlash joizki, "kompetentlik" va "kompetentsiya" o'zgaruvchan vaziyat va holatlarda barqaror natijaga erishishdir. Shuningdek, kompetentsiya, bilimdan farqli, vaziyatga bog'liq emas.

Ta'lim tizimini isloq qilish jarayonlarida amalga oshirilayotgan o'zgartirishlar va yangiliklar asosida jismoniy tarbiya instruktorilarga belgilanayotgan **zamonaviy talablar**:

- ✓ ta'lim va bolalar to'g'risidagi Hukumat tomonidan qabul qilingan qarorlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini tushunib etadigan hamda targ'ibot qiladigan;
- ✓ jismoniy tarbiya sohasini chuqur biladigan, pedagogik jarayonlarda tarbiyalanuvchilarning sub'ektivligini va faolligini oshirishga alohida ahamiyat qaratadigan;
- ✓ o'zaro do'stona munosabatlarga asoslangan hamkorlikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalariga ega bo'lgan;
- ✓ pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, tarbiyalanuvchilar va jismoniy tarbiya instruktori hamkorligini shakllantirish va muvofiqlashtirish, pedagogik jarayonlarda motivlashtirish, refleksiv faoliyat jarayonlarini tashkil etish asosida refleksiv ta'limiy muhitni shakllantirish yo'nalishlarida zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan o'qituvchi shaxsini shakllantirishni taqozo etadi.

Pedagogik jarayonlarni tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini barqaror rivojlantirishda jismoniy tarbiya instruktorining faoliyati samaradorligi asosan ularning pedagogik jarayonlari va ularni tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi tushunchalari, bilimi, ko'nikma va malakalari darajasiga hamda ularning shaxsiy xususiyatlari va kasbiy amaliyotga ega bo'lgan shaxsiy sifatlari shuningdek qobiliyatlari, mahorati va kasbiy tajribasiga bog'liq bo'ladi.

Chunki jismoniy tarbiya instruktori shaxsi pedagogik jarayonlarini tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish hamda tarbiyalanuvchilarning jismoniy tarbiya faoliyatini muvofiqlashtirishga boshqaruvchi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, jismoniy tarbiya instruktori pedagogik jarayonlarni ham boshqaruvchisi, ham ishtirokchisi sifatida tegishli ma'lumotga, kasbiy tayyorgarlikka va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lish zaruriyati bejiz belgilanmagan.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim tashkiloti jismoniy tarbiya instruktori pedagogik jarayonlarni tashkil etish va uni boshqarishda innovatsion yondashuvlarga asoslanishi, kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlarga ega bo'lishi, ixtiyoriy vaziyatlarda o'z-o'zini nazorat qila olishi, shuningdek, sport ta'lim muassasasida hukm suruvchi tarbiyaviy munosabatlarni e'tiborga olgan holda faoliyat olib borishi, turli xil masalalarni va muammolarni hal etishda mavjud huquqiy-me'yoriy mezonlarga asoslanishi zarur bo'lib, bular jismoniy tarbiya instrukturining kasbiy kompetentligini ifodalaydi.


Kompetentsiyani 4 turga bo'lishi mumkin: kasbiy, shaxsiy, umummadaniy, maxsus (2.1-rasm).

### **Shaxsiy kompetentsiya:**

- ✓ insonparvarvarlik;
- ✓ bolalarni sevishi va mehribonlik;
- ✓adolatli bo'lish;
- ✓ talabchanlik;
- ✓ bag'rikenglik;
- ✓ mas'uliyatlilik va hokazo.

### **Kasbiy kompetentsiya:**

- ✓ ta'lim berish va o'rganish uchun sharoit yaratish;
- ✓ tegishli sport turi uslubiyotini takomillashtirish;
- ✓ axborot texnologiyalarini qo'llay olish;
- ✓ ta'lim jarayonini boshqarish;
- ✓ o'quvchilar bilimi va yutuqlarini ob'ektiv baholash;
- ✓ o'quvchilarda motivatsiya uyg'otish va ularni qo'llab-quvvatlash;
- ✓ o'quvchini shaxs sifatida hurmat qilish va uning yutuqlarini tan olish;
- ✓ pedagogika va psixologiyani bilish;
- ✓ o'z bilimini doimiy takomillashtirish va hokazo.



## 2.1-rasm. Kompetensiya turlari

### **Umummadaniy kompetentsiya:**

- ✓ kasbiy etika va estetikaga rioya qilish;
- ✓ madaniyatli bo‘lish;
- ✓ umuminsoniy qadriyatlarga egalik;
- ✓ mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish;
- ✓ boshqa millatlarning madaniyatini hurmat qilish va hokazo.

### **Maxsus kompetentsiya:**

- ✓ sport turining nazariyasini bilish;
- ✓ sport turining tarixi va rivojlanish bosqichlarini bilish;
- ✓ sport turining texnikasini o‘quvchilarga o‘rgatish;
- ✓ sport turining taktikasini o‘rgatish va hokazo.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti jismoniy tarbiya instruktori, quyidagi umumiylar qobiliyatlarni o‘z ichiga qamrob olgan umumiylar **malaka kompetentsiyalarga** ega bo‘lishlari kerak, jumladan:

- ✓ kelajakdagagi kasbining mohiyatini va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga qiziqish ko‘rsatish;
- ✓ o‘z faoliyatini tashkil etish, kasbiy vazifalarni echish usullarini aniqlash, ularning samaradorligini va sifatini baholash;
- ✓ noan’anaviy holatlarda tavakalchilik (xavf-xatar)ni baholash va qarorlar qabul qilish;
- ✓ kasbiy va shaxsiy rivojlanish hamda kasbga oid vazifalarni hal etish uchun zarur bo‘lgan axborotni izlash, tahlil qilish va baholashni amalga oshirish;

## Pedagogning professional kompetentligi va mahorati

- ✓ kasbga oid faoliyatni takomillashtirish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish;
- ✓ hamkasblar va ijtimoiy sheriklar bilan hamkorlik qilish, kollektivda va jamoada ishlash.;
- ✓ jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanuvchilar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning o‘quv-mashg‘ulotlari jarayonlari sifati uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish ishlarini va nazorat qilish hamda jismoniy tarbiya-sport tadbirlarini tashkil etish maqsadlarini belgilash;
- ✓ shaxsiy va kasbiy malakasini rivojlantirish vazifalarini mustaqil ravishda belgilash, mustaqil ta’lim olish bilan shug‘ullanish, ongli ravishda malakali oshirishishni rejalashtirish.

Jismoniy tarbiya instruktorining kompetentligi pedagogik qobiliyatning shakllanganiga bog‘liq bo‘ladi va qobiliyat, malaka va uddaburonlikdan farq qiladi. Malaka va uddaburonlik mashq, o‘qish natijasi hisoblansa, qobiliyatning rivojlanishi uchun esa yana iste’dod, layoqat va zehn, ya’ni inson nerv tizimida anatomo-fiziologik asos bo‘lishi ham zarur.

Demak, kompetentlik maktabgacha ta’lim tashkiloti jismoniy tarbiya instruktorining ma’naviy dunyoqarashi, psixologik-pedagogik va tashkiliy texnologik salohiyati, ya’ni uning kasbiy imkoniyatlari salohiyatini ifodalaydi. Mazkur salohiyatni maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogik faoliyati jarayonini o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, ular tomonidan tashkil etilayotgan pedagogik jarayonlarning holati va samaradorligi orqali aniqlash mumkin bo‘ladi.

## Pedagogning autopsixologik kompetentsiyalari

**Autopsixologik kompetentsiya** – bu pedagogdagi shunday malakalar majmuiki, ular pedagogni o‘z kasbiy hamda shaxsiy sifatlarini diagnostikalash, ya’ni o‘zini o‘zi diagnostika qilish, o‘zini o‘zi tuzata olish (korrektsiyalash), o‘zini o‘zi takomillashtira olish, o‘ziga-o‘zi motivatsiya bera olish, har qanday ma’lumotdan samarali foydalana olish, psixolingvistik kompetentsiyalar bilan bog‘liq qobiliyatdir.

[1] **Tarbiyalanuvchiga yondashuv** – jismoniy tarbiya instruktorining ichki va tashqi – tarbiyalanuvchining talabini qondirishdan manfaatdor ekanligini ko‘rsata olish xususiyati.

- Ushbu kompetentsiyaga ega jismoniy tarbiya instruktori:
- ✓ tarbiyalanuvchining muammolarini tez va samarali hal etadi;
  - ✓ tarbiyalanuvchining natijadan qanchalik darajada qoniqayotganligini aniqlash maqsadida, u bilan suhbat o‘tkazadi;
  - ✓ tarbiyalanuvchilarga, ularning mashg‘ulotga bo‘lgan talablarini qondirish uchun birgalikda hamkorlik qilishga tayyorligini bildiradi;
  - ✓ tarbiyalanuvchining mashg‘ulotlardan qoniqish darajasini o‘lchash va aniqlash usullarini topadi hamda ijobiyligi ta’sir qilish yo‘li (muomala manyorasi)ni yaratadi.

[2] **Diagnostik ma'lumotlarni yig'ish** – jismoniy tarbiya instruktorining vaziyatga aniqlik kiritish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni bilish; bunday ma'lumotlarni tegishli manbalar yordamida qidirishni amalga oshira olish (savolni shunday berish kerakki, ma'lumotni bo'lishishni xohlamagan tarbiyalanuvchi ham javob bergenini o'zi bilmay qolsin) kompetentsiyasi.

Ushbu kompetentsiyaga ega jismoniy tarbiya instruktori:

- ✓ vaziyatni aniqlashtirish va qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan maxsus ma'lumotlarni tan oladi;
- ✓ ko'plab manbalarga murojaat qilgan holda katta miqdorda ishonchli ma'lumotlarni topadi;
- ✓ zarur bo'lganda hamkorlar uchun sun'iy dalillar keltiradi;
- ✓ tarbiyalanuvchilardan mashg'ulot ishlari qanday ketayotganini bilish, ularning muammolarini eshitish maqsadida tez-tez xabar olib turadi;
- ✓ pedagogik kengash bilan, ular o'z harakat rejasini qanchalik yaxshi tuzishganligini baholash maqsadida suhbatlashib turadi;
- ✓ vaziyatga oydinlik kiritish maqsadida savollar beradi;
- ✓ har bir tarbiyalanuvchichining fikrini so'raydi;
- ✓ muammoni oydinlashtirish, ma'lumotni qo'lga kiritish uchun bilimdon (dono) odamlarni topa oladi.



## 2.2-rasm. Pedagogning autopsixologik kompetensiyalari

Umuman olganda, jismoniy tarbiya instruktori o'zini egallab turgan lavozimi darajasida kasbiy kompetentlikka ega ekanligini his etgandagina pedagogik jarayonni muvoffaqiyatli tashkil etishi mumkin, degan xulosaga keldik. Zotan uni kasbiy bilimdonlik, halollik, rostgo'ylik, izlanuvchanlik, tinimsiz sermahsul mehnat, ijodkorlik va yaratuvchanlik kabi fazilatlar yuksaltiradi. Uning bilimdonligi, faolligi, mehnatkashligi, kamtarligi, m'naviyati va madaniyati, ma'rifatliligi o'quvchilari, bo'lajak kasb egalarining hurmat-ehtiromiga sazovor etadi.

Shu erda sharq mutafakkiri **Abu Nasr Farobi**ning: “**Agar inson xayrihohlilik, go'zallik, oliyanoblik va ulug'verlikka boshqa odamlar orqali emas, balki o'zi va o'z ruhi o'rtasidagi mayjud narsa orqali erishgan bo'lsa, ul (odam) xaqiqatdan ham xayrihohlvi va barkamollikka erishadi. Buni uning o'zidan boshqa hech kim sezmagan taqdirda ham uning ruhi ulug'ver va**

**oliyjanob bo‘ladi va o‘sha odam bu fazilatlarga erishganidan bag‘oyat xursand bo‘ladi”,** degan gaplari juda o‘rinlidir.

Demak, kompetentli jismoniy tarbiya instruktori ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish va boshqarish yo‘nalishida zaruriy tushunchalarga ega bo‘lgan, yosh davrlar psixologiyasini yaxshi biladigan, boy va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan, ta’lim jarayoniga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni tadbiq eta oladigan, tegishli ma’lumoti va kasbiy tayyorgarligi bor, yuksak pedagogik mahorat va boy kasbiy tajribaga ega bo‘lgan pedagogik shaxsni ifodalaydi.

## **2.2. KASBIY KOMPETENTSIYA MODELI.**

Dunyoda pedagogning professional kompetentligi va uning ilmiy-metodik ta’minotini shakllantirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning pedagogik-psixologik mexanizmlarini takomillashtirishga oid qator, jumladan,

- pedagogda professional kompetentlikni shakllantirish asosida mutaxassislarining individual imkoniyatlarini takomillashtirish;
- pedagoglarda kasbiy, kommunikativ, intellektual kompetentlikni rivojlantirish bo‘yicha psixologik ilmiy izlanishlar;
- kasbiy kamolotni tadbiq etishda tadqiqotga yo‘naltirilgan ta’lim;
- kompetentlikni rivojlantirish asosida ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish yo‘nalishlarida tadqiqotlar olib borilmoqda.

Kasbiy mahorat, professionalizm, xususan, pedagog-o‘qituvchilar professional xususiyatlarining rivojlanishiga ta’sir etuvchi psixologik omillar hozirgi kungacha bir qator mamlakatimiz va xorij olimlari tomonidan ko‘plab tadqiqotlarning predmetiga aylangan.

O‘zbekistonda pedagog faoliyati xususiyatlarini har tomonlama o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar juda ko‘p. Pedagog professional faoliyatining psixologik muammolari mamlakatimiz olimlari **M. Davletshin, E. G‘oziev, V. Tokareva, R. Gaynutdinov, A. Jabborov, Z. Nishonova, D. Muxamedova, Y. Asadov, A. Rasulov, S. Sirliev, Sh. Abdullaeva** va boshqalar tadqiqotlarida o‘z ifodasini topgan. Jumladan, **A. Jabborov** o‘qituvchining psixologik va etnopsixologik xususiyatlarini tadqiq etgan bo‘lsa, **R. Gaynutdinov** uzluksiz ta’lim tizimida o‘zbek milliy maktabi o‘qituvchisi shaxsi shakllanishi xususiyatlarini yoritib bergan. **Y. Asadov** o‘qituvchining individual-psixologik xususiyatlari uning professionalizmini oshirish omili ekanligini o‘z tadqiqotlarida isbotlagan.

Professional kompetentlik mohiyati **E. Zeer, V. Karimova, E. G‘oziev, R. Uayt, V. Naperov, L. Panina, A. Karpov, E. Safanova, A. Smirnov, V. Spiridonova, I. Shtobbe, T. Bazarov** va hammualliflari tomonidan talqin etilgan.

Zamonaviy psixologiyada pedagog shaxsi shakllanishi **B. Ananev, A. Kovalev, A. Rean, Ya. Kolominskiy, V. Slastenin, S. Arxangelskiy** va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

## Pedagogning professional kompetentligi va mahorati

**I. Zimnyaya, N. Kuzmina, L. Mitina, L. Petrovskaya, A. Markova**

pedagog professional kompetentligining maxsus, ijtimoiy, shaxslilik, individual turlarini ajratgan holda, pedagog faoliyati samaradorligida uning kompetentligini shakllantirish ahamiyatini ta'kidlaydilar.

Pedagog professional kompetentligining shakllanish shart-sharoitlari **O. Abdulina, Yu. Babanskiy, V. Kan-Kalik, K. Levitan** tadqiqotlarida o‘z ifodasini topgan.

Pedagog kasbiy muhim sifatlarining psixologik tahlili **Yu. Kulyutkin, F. Golobolin, V. Slastenin** va boshqa olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Pedagog professional kompetentligi muammosi bilan shug‘ullangan **Sh. Abdullaeva** (2019) tadqiqot natijalariga ko‘ra quyidagi ilmiy yangiliklarni qo‘lga kiritgan:

- pedagogning professional kompetentligini belgilovchi predmetli-faoliyatlik komponenti (faoliyatni erkin tanlashga intilish, insonlar bilan ishlashga yo‘nalganlik, o‘zga kishilar uchun o‘zini safarbar etish, natijalar uchun to‘siqlarni bartaraf etish va mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish, muvaffaqiyatga intilish, tavakkal qilishga tayyorlik, yangilik yaratishga intilish), shaxslilik komponenti (sodir bo‘ladigan voqeа-hodisalarga javob berish, o‘zga kishilarni qo‘llab-quvvatlash va ko‘maklashishga qobiliyatatlilik, emotsional holatlarini nazorat qilishga o‘quvlilik), ijtimoiy-kommunikativlik komponenti (muloqotdagi qayishqoqlik, tolerantlik, muomalada o‘zini nazorat qilish malakasini rivojlanganligi) aniqlangan;

- pedagogda professional kompetentlikning shakllanishi unda noaniqlikka tolerantlikni, muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini, o‘zini omadli shaxs ekanligi haqidagi tasavvurini rivojlanishiga hamda rigidlikni, xavotirlanish va innovatsion faoliyatga nisbatan qarshiliklarni pasayishiga olib kelishi asoslangan;

- pedagog professional kompetentligining professional-faoliyatli ong, “Men-pedagog” kontseptsiyasining professional jihatdan aniqligi, faoliyatni amalga oshirishga axborot va vositalar bilan tayyorlik kabi tarkibiy tuzilmalari aniqlangan;

- sintezlovchi refleksiyaga qobiliyatatlilik, faoliyatni loyihalash va amalga oshirishga qobiliyatatlilik, ijobiy “Men kontseptsiyasi” pedagogda professional kompetentlikni tarkib toptirishning psixologik shart-sharoitlari ekanligi isbotlangan;

- pedagog professional kompetentligining maxsus (o‘qituvchilik faoliyati bilan bog‘liq bilim, ko‘nikma, malakalar), ijtimoiy (muomalaga kirisha olish, o‘zaro ta’sir malakasi) va shaxslilik (individual va kasbiy-muhim sifatlar, emotsional barqarorlik, qiyin vaziyatlardan chiqib keta olish malakasi) komponentlari shakllanishi o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik aniqlangan.

Shaxsning savodxonlik darajasi katta hajmdagi akademik bilimlarni egallash bilan emas, kompetentli yondashuvga ko‘ra o‘z bilimlaridan amalda samarali foydalana olish qobiliyatiga qarab baholanadi. Negaki, fan, texnika, ishlab chiqarish, sport va ijtimoiy munosabatlar shiddat bilan rivojlanib borayotgan ayni davrda axborot (bilimlar) shu darajada ko‘pki ularning hammasini o‘zlashtirishga inson qodir emas.

***Pedagogik maqsad***ning o‘ziga xosligini quyidagilarda bilish mumkin:

**1.** Pedagogik faoliyatning maqsadi jamiyat tomonidan belgilanadi, ya’ni jismoniy tarbiya instruktori faoliyatining natijasi jamiyat manfaatlari bilan bog‘liqdir. Uning mehnati yoshlar shaxsini har tomonlama kamol toptirishga yo‘naltirilgan. Pedagogik faoliyat avlodning ijtimoiy uzviyiligi (ketma-ketligi)ni ta’minlaydi. Bir avlod tajribasini, ikkinchi avlodga o’tkazadi, ijtimoiy tajriba orttirish uchun insondagi tabiiy imkoniyatlarni ro‘yobga chiqaradi.

**2.** Jismoniy tarbiya instruktori faoliyati doimo shaxs faoliyatini boshqarish bilan bog‘liq. Bunda pedagogik maqsad tarbiyalanuvchi maqsadiga aylanishi muhimdir. Jismoniy tarbiya instruktori o‘z faoliyati maqsadini va unga erishish yo‘llarini aniq tasavvur qilishi va bu maqsadga erishish tarbiyalanuvchilar uchun ham ahamiyatli ekanligini ularga anglata olishi zarur. Gyote ta’kidlaganidek: “Ishonch bilan gapir, ana shunda so‘z ham, tinglovchilarni mahliyo qilish ham o‘z-o‘zidan kelaveradi”.

**3.** Pedagogik (ta’lim-tarbiya) jarayonida tarbiyalanuvchi faoliyatini boshqarish shuning uchun ham murakkabki – jismoniy tarbiya instruktori maqsadi doimo tarbiyalanuvchi kelajagi tomon yo‘naltirilgan bo‘ladi. Buni anglagan holda, mohir jismoniy tarbiya instrukturлари o‘z faoliyatini mantig‘ini tarbiyalanuvchilar ehtiyojlariga muvofiq holda loyihalaydilar. Hamkorlik pedagogikasining tub mohiyati ham ana shundan iborat.

### ***Pedagogik faoliyatning o‘ziga xosligi*** quyidagilarda namoyon bo‘ladi.

**1.** Inson tabiatning jonsiz moddasi emas, balki o‘zining alohida xususiyatlari, ro‘y berayotgan voqealarning idrok qilishi va ularga o‘zicha baho beradigan takrorlanmaydigan faol mavjudotdir. Psixologiyada ta’kidlanganidek, har bir shaxs takrorlanmasdir. U pedagogik jarayonning o‘z maqsadi, ishtivoqi va shaxsiy xulqqa ega bo‘lgan ishtirokchisi hamdir.

**2.** Jismoniy tarbiya instruktori doimo o‘sib-o‘zgarib boradigan inson bilan ishlaydi. Ularga yondoshishda bir xil qolip, shakllanib qolgan xatti-harakatlardan foydalinish mumkin emas. Bu esa jismoniy tarbiya instruktoridan doimo ijodiy izlanib turishni talab qiladi.

**3.** Tarbiyalanuvchilarga jismoniy tarbiya instruktoridan tashqari, atrof muhit, ota-onas, maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi tarbiyachilar, ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy hayot ham ta’sir etadi. Shuning uchun ham jismoniy tarbiya instruktori mehnati bir vaqtning o‘zida jamiki ta’sirlarga va tarbiyalanuvchilarning o‘zida paydo bo‘lgan fikrlarga tuzatishlar kiritib borishni nazarda tutadi.

### ***Pedagogik texnologiyalar – professional kompetentligini rivojlanishini nazariy-ilmiy asosi sifatida.***

Pedagogikaga oid adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, hozirgi davrda pedagogik texnologiya tushunchasi ta’lim amaliyoti va nazariyasi ilmidan mustahkam o‘rin egalladi, lekin u pedagogikaning mukammal lug‘atlari

(tezaurus)dagi o‘rni hali aniq bo‘lmay qolmoqda. Pedagogik texnologiya tushunchasining shakllanishi va rivojlanishi tarixida turli qarashlar mavjud bo‘lgan: u texnik vositalar haqidagi ta’limot deb hamda o‘qitish jarayonini loyihalashtirilgan holda izchil va muntazam tashkil etish deb talqin qilingan.

Pedagogik texnologiyalar ta’riflariga bo‘lgan turli yondashuvlar shuni ko‘rsatadiki, haqiqatdan ham o‘qitish texnologiyalari fan va ishlab chiqarish hamda o‘quv-pedagogik jarayon oralig‘idan o‘rin oladi. Bu kasbiy didaktik tayyorgarlik tizimidagi bilimlarning mustaqil sohasi bo‘lib, u o‘kitishning didaktika nazariyasi va amaliyoti bilan chambarchas bog‘langan. U o‘quv faoliyatini boshqarish jarayonini loyihalash va konstruktsiyalarini o‘zida qamrab oladi.

O‘qitish texnologiyasi tarkibiga o‘kuv jarayonini boshqarishning aniq usullari, boshqarish va o‘qitishning ayni istiqbolli tadbirlari haqidagi ham nazariy, ham amaliy bilimlar kiritiladi. O‘quv jarayonining borishi sharoitlariga mos ravishda ularning izchilligi belgilanadi.

Ta’kidlash lozimki, “pedagogik texnologiya” va “pedagogik tizim” aksariyat holalarda o‘zaro aloqador hodisa. Zero, pedagogik jarayon dinamik tarzda rivojlanuvchi, boshqariladigan jarayon sifatida texnologik munosabatlarni tashkil etadi. “Texnologiya” so‘zi turli aspektlarda ishlataladi. Masalan, “pedagogik texnologiya” tushunasiga bunga bir qancha ta’riflarni keltirish mumkin:

“Texnologiya” tushunchasi yunoncha “Texnos” (techne) va “logos” (logos) so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib, “hunar fani”ni o‘rganish degan ma’noni anglatadi.

Bu tushuncha texnik taraqqiyot mazmunini ifodalashga xizmat qiluvchi tushuncha sifatida ilk marta 1872 yilda qo‘llanilgan. “Texnologiya” tushunchasi bugungi kunda mazmun va mohiyatiga ko‘ra quyidagi holatlarni ifodalash maqsadida qo‘llanilmokda:

**Texnologiya** – san’at, mahorat, ko‘nikma, metodlar yig‘indisi, muayyan holatni o‘zgartirishga xizmat qiluvchi jarayon; inson faoliyati va tafakkuri bilan bog‘lash bo‘lgan madaniy tushuncha; texnik jihatdan ahamiyatli sifat va qobiliyatning intellektual qayta ishlanishi; kandaydir jarayonni amalga oshirish metodlari haqidagi bilimlar yig‘indisi; amaliyotga joriy qilinishi talab etilayotgan ma’lum bir pedagogik tizim loyihasi.

“Zamonaviy texnologik jarayon” deganda zarur vosita va sharoitlardan foydalananilgan holda ma’lum operatsiyalarini muayyan ketma-ketlikda bajarishga yo‘naltirilgan faoliyat tushuniladi. Aniqroq qilib aytganda, mehnat qurollari va predmetlari vositasida bosqichma-bosqich ta’sir etish orqali tayyor mahsulot yartishga yo‘naltirilgan faoliyat tushuniladi.

Ana shu ta’rifni tadqiqot mavzusiga ko‘chiradigan bo‘lsa **pedagogik texnologiya** – o‘qituvchi(pedagog)ning **ta’lim-tarbiya vositalari** yordamida tahlil oluvchilarga muayyan **sharoitlarda tizimli** ta’sir ko‘rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida **ularda jamiyat** uchun zarur bo‘lgan va oldindan belgilangan **ijtimoiy** sifatlarni intensiv tarzda shakllantiruvchi **ijtimoiy hodisadir**, degan g‘oya ifoda etiladi.

**Texnologiya** – bu metodlar yig‘indisini qayta ishlash, mavjud holatni o‘zgartirish mahorat san’ati.

**Texnologiya** – bu texnik ahamiyatli ishlanmalarni o‘zlashtirish va tadbiq qobiliyati.

**Texnologiya** – bu o‘quv jarayonlariga maqsadli, tashkiliy, mo‘ljalli pedagogik ta’sir etish vositasi.

**Texnologiya** – ta’lim natijalariga rejali muvoffaqiyat kafolatlangan uslub.

Ko‘rib turganimizdek, pedagogik texnologiya xususidagi qarashlar yakdilligi bilan mushtarak xulosalarni beradi. U ma’lum maqsad natijaviy samaradorligiga qaratilganligi bilan pedagogikadagi muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik fan rivojini ta’minalashdagi zamonaviy yondashuvlar **pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish** pedagog olimlarning diqqat markazida turibdi. Ta’lim texnologiyasi pedagogik tizimning asosida shakllanadi va rivojlanadi va uning sifat darajasini bugungi zamon ehtiyojlari asosida tashkil etish davr talabiga aylanmoqda. Chunonchi, shu o‘rinda texnologiya nazariya bilan amaliyotni bog‘lovchi bug‘in sifatida xizmat qiladi. Texnologiyasiz alohida pedagogik fanlar amaliyotning takibiga aylanmaydi.

**Pedagogik texnologiyani ta’lim jarayoniga tadbig‘ining keng quloch yoyishi biroz qiyin kechmoqda, buning sababi, birinchidan, pedagogik texnologiyaning nazariy asoslari ancha murakkabligi bo‘lsa, ikkinchidan, pedagogik olimlar va o‘qituvchilarini sinergetikaning majmular nazariyasini to‘la egallab olmaganligida deb tushuntirish mumkin. Majmular nazariyasini to‘liq bilmagan kishi, pedagogik texnologiyaning mazmun va mohiyatiga tushunib etmaydi. Shu kundagi sinergetik dunyoqarash va uning tarkibiy qismi bo‘lgan, butun borliqqa majmu sifatida yondashuv tamoyilini bilmay turib, pedagogik texnologiyani amaliyotga singdirib bo‘lmaydi.**

**Pedagogik texnologiya** – bu ta’lim jarayonlarida shaxs kamolotini maksimal darajada rivojlantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan va tanlangan ta’sir ko‘rsatish vositalarining xususiyati. U pedagog va o‘quvchi shaxsi alohida munosabatlarning keng qamrovli, individual uslublar hosilasi.

Ta’limda “texnologiya” iborasi pedagogik fan muomalasiga mutaxassislarining tarbiyalanuvchiga ta’sir ko‘rsatishni san’at darajasida e’tirof etish bilan boshlanadi. Ya’ni “texnos” san’at, mahorat, “logos” ta’limot. Pedagogik texnologiya tarbiyalanuvchiga ta’sir etuvchi pedagoglar mahoratining professional tizimini ifoda qiladi.

**Pedagogik texnologiya** – bu nafaqat texnika – texnologiyadan iborat, balki ta’lim jarayonlarini optimallashtirishga qaratilgan yondashuvlarning tahliliy materiallar, yangi samarali konstruktsiyalar, uslublarning talablarga hozirjavobligi turkum

| elementlar yig‘indisi sifatida pedagogik texnologiyani tashkil etadi.

Shunday qilib, pedagogik texnologiya o‘quv jarayonlarini tashkil etish va maqsadga erishishni boshqarish kabi savollarga javob berishga qaratiladi. Jumladan,

- yangi texnologiyani joriy etishda mavjud texnologiya xususiyatini aniqlash;
- texnologiyaning maqsadini belgilash;
- sifat ko‘rsatkichlari va talablari;
- belgilangan talab va maqsadlarga erishishni talab etuvchi mexanizm tamoyillarini shakllantirish;
- parametr va muvozanatni belgilovchi texnologik jarayonning strukturnasi;
- texnologik xarita va chizmalarini belgilash;
- texnologiyaning rag‘batlantiruvchi funktsiyalarini belgilash;
- psixologik, fiziologik, texnik va boshqa resurslarni taqsimlash tamoyilini ishlab chiqish;

Tarbiyalanuvchiga ta’sir ko‘rsatish bir qancha parametrlarni talab qiladi. Jumladan, ratsional-psixologik holat umumma’naviy daraja va yoshi, munosabatlarning shakllanishi, ma’naviy va intellektual rivoji. Bu parametrlar ta’lim oluvchining ob’ektini vujudga keltiradi. Aniqlangan ob’ektga nisbat sub’ekt ta’siri tanlanadi.

### **Pedagogik texnologiyaning asosi:**

- 1.** Tarbiyalanuvchi (o‘quvchi, talaba)ga hurmat bilan qarashning amaliy muvofiqligi;
- 2.** Pedagogik ta’sirning maqsadli va mantiqiy asoslanishi;
- 3.** Har bir ishning oxiriga etkazilishi.

### **Pedagogik mahorat:**

- 1.** Psixologik-pedagogik eruditsiya;
- 2.** Kasbiy mahorat;
- 3.** Pedagogik texnika.

### **Pedagogik texnologiya turlari:**

- 1.** O‘rgatish va namoyish qilishga qaratilgan ta’lim texnologiyasi u maxsus umumta’lim fanlarni o‘rgatishga doir faoliyat turlari haqida ma’lumot beradi.
- 2.** Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasi u shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.
- 3.** Ta’limni rivojlantirishga qaratilgan texnologiya bo‘lib, u ta’lim oluvchining shaxsini rivojlantirishga qaratilgan vosita va uslublardan iborat.

Pedagogik texnologiyani boshqa ta’lim usullaridan ajratib turadigan o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardir.

**Birinchidan**, avval ham bir necha bor ta'kidlaganimizdek, pedagogik texnologiya sinergetik dunyoqarashdan kelib chiquvchi ob'ektiv narsa va hodisalarga majmu yondashuv tamoyili asosida yaratilgan. Avvalgi pedagogik usullar, tuzilishi jihatidan erkin bo'lib, dars tarkibini belgilash o'qituvchi ixtiyorida bo'lган.

**Ikkinchidan**, pedagogik texnologiyada oldindan belgilangan asosiy maqsadga erishish kafolatlangan. Boshqa barcha pedagogik usullarda ta'lim-tarbiya faoliyatining kafolatlangan natijasi mavjud bo'lmay, stixiyali natijalar bilan kifoyalanib kelingan.

**Uchinchidan**, pedagogik texnologiyada, asosiy maqsadga erishish bosqichma-bosqich amalga oshirilib, har bir bosqichda oldinga qo'yilgan maqsadlar, bajarilishi lozim bo'lган vazifalar va talab qilinadigan vositalar hamda usul va uslublarning aniq modullari hosil qilinadi. Boshqa pedagogik usullarda ta'lim-tarbiya jarayonining yakunida umumiy maqsad qo'yilib, unga erishish yo'llari o'qituvchining ixtiyoriga havola qilingan.

**To'tinchidan**, pedagogik texnologiya universal xususiyatga ega bo'lib, uni har bir mutaxasis, a'lo bo'lmasa hamki, yaxshi amalga oshira oladi. Darsning intensivligiga va samaradorligiga, pedagogning mahorati va shaxsiy sifatlari deyarli ta'sir etmaydi.

Tarbiyalanuvchi shaxsiga doimo ijobjiy-axloqiy ta'sir ko'rsata oladigan kishigina haqiqiy tarbiyachidir. Bunga erishish uchun jismoniy tarbiya instruktori o'zining axloqiy sifatlarini doimo takomillashtirib borishi zarur.

Ayrim jismoniy tarbiya instrukturлари kasbiy mahorat sirlarini egallash uchun, avvalo ta'lim-tarbiya metodlarini takomillashtirishga intiladilar. Bu tabiiy hol, chunki aynan metodlar yordamida jismoniy tarbiya instruktori o'z tarbiyalanuvchilarini jismoniy tarbiya faoliyatiga jalb qiladi. Shu bilan birga tarbiyalanuvchilarni bilim olishga qiziqtirishda jismoniy tarbiya instruktori tomonidan tanlangan metodlar, usullar va topshiriqlardan boshqa sabablar ham ta'sir etadi. Jismoniy tarbiya instruktori faoliyatining muvaffaqiyatli kechishi uning shaxsi, xarakteri, tarbiyalanuvchilar bilan muomalasiga ham ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Odatda bularning ta'lim-tarbiya jarayoniga ta'siri ahamiyatsizdek tuyuladi. Ammo tajribali jismoniy tarbiya instruktori, uning xatti-harakati tarbiyalanuvchilarga qanday ta'sir ko'rsatayotganligiga ahamiyat berib, unga kerakli tuzatishlar kiritib, takomillashtirib boradi. Shuning uchun ham pedagogik mahoratni jismoniy tarbiya instruktori shaxsi sifatlarini majmui sifatida qaralib, uni jismoniy tarbiya instruktori yuqori darajada psixologik-pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lishi bilan bog'liq bo'lishini unutmaslik lozim.

**Xulosa o'rniда:** Tinglovchilarga quyidagi rasm berilib, "O'z ish faoliyatizingizni, kompetentlik darajangizni o'zingiz baholang" degan vazifa beriladi. Har bir tinglovchi o'z fikrini aytadi

## Pedagogning professional kompetentligi va mahorati

Pedagog professional kompetentligining **maxsus, ijtimoiy** va **shaxslilik-tipologik** komponentlari o‘rtasida korrelyatsion aloqadorlik mavjud bo‘lib, mazkur komponentlarning mutanosibligi **professional kompetentlilik shakllanishida** muhim rol o‘ynaydi.

**Pedagog professional kompetentligining** tarkibiy komponentlariga uning motivatsiyasi, individual-tipologik xususiyatlari, emotsiyal barqarorligi, kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlar, yangiliklarni qabul qila olish va moslashish imkoniyatlari, kutilmagan vaziyatlarda o‘zini boshqara olishi va vaziyatdan chiqqa olish qobiliyati kiradi.

Bo‘lajak va faoliyat yuritayotgan **pedagolgarda professional kompetentlikning** maxsus, ijtimoiy va shaxslilik komponentlarini o‘rganish mazkur komponentlar geteroxron ravishda rivojlanishini ko‘rsatdi, bunda maxsus komponentning nisbatan yuqori ko‘rsatkichlarida ijtimoiy va shaxslilik komponentlari past ko‘rsatkichlarga ega ekanligi namoyon bo‘ldi. Mazkur holatga shakllantiruvchi korreksion tadbirlarda alohida e’tibor qaratish lozim.

### 2.3. “ILK QADAM” DAVLAT O‘QUV DASTURIDA “JISMONIY RIVOJLANISH VA SOG’LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH” SOHASI KOMPETENTSIYALARI

Davlat talablarida quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

**maktabgacha ta’lim** – maktabgacha yoshdagi bolalar qiziqishi, iqtidori, individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda hamda bolada ma’naviy me’yorlarni shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallanishini ko‘zda tutgan har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan yaxlit jarayon;

**rivojlanish** – inson tanasi tuzilishi, ruhiyati va xulqida biologik jarayonlar hamda atrof muhit ta’sirida ro‘y beradigan o‘zgarishlar;

**rivojlanish sohasi** – bola rivojlanishidagi aniq bir yo‘nalishlar;

**kichik soha** – sohaning kichik guruhlari. Asosiy sohalarning kichik sohasi rivojlanishning ma’lum bir tomonlarini o‘z ichiga qamrab oladi va ularning aniq bir yo‘nalishini ko‘rsatib beradi;

**kutilayotgan natija** – bolalarda kutilayotgan bilim, ko‘nikma va malakalar ko‘rsatkichi;

**bola kompetentsiyasi** – ma’lum bir yosh davriga xos bo‘lgan vazifalarni maqsadli bajarish uchun etarli bo‘lgan bolaning bilimi, ko‘nikmasi va malakalari hamda qadriyatlari;

**integratsiya** – bola ta’limi va rivojlanishidagi mazmun tarkibiy qismlari o‘rtasidagi bog‘liqlik;

#### 2.1-jadval.

##### 3 dan 4 yoshgacha bo‘lgan guruhlarda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarning taxminiyl miqdori

No	O‘quv yili mobaynida	Sog‘lomlashtirish davri mobaynida
----	----------------------	-----------------------------------

## Pedagogning professional kompetentligi va mahorati

	<b>Mashg‘ulot -lar nomi</b>	hafta mobay -nida	oy mobay - nida	o‘quv yili mobaynid a	hafta mobaynid a	oy mobay - nida	Sog‘lomlashtiris h davri mobaynida
...							
11.	Jismoniy tarbiya	2 (undan bittasi toza havoda )	8	72	hordiq	1	3
...							

**2.2-jadval.**

### 4 dan 5 yoshgacha bo‘lgan guruhlarda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarning taxminiy miqdori

<b>№</b>	<b>Mashg‘ulot -lar nomi</b>	<b>O‘quv yili mobaynida</b>			<b>Sog‘lomlashtirish davri mobaynida</b>		
		hafta mobay -nida	oy mobay - nida	o‘quv yili mobaynid a	hafta mobaynid a	oy mobay - nida	Sog‘lomlashtiris h davri mobaynida
...							
10.	Jismoniy tarbiya	2 (undan bittasi toza havoda )	8	72	sport o‘yinlari	1	3
...							

**2.3-jadval.**

### 5 dan 6 yoshgacha bo‘lgan guruhlarda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarning taxminiy miqdori

<b>№</b>	<b>Mashg‘ulot -lar nomi</b>	<b>O‘quv yili mobaynida</b>			<b>Sog‘lomlashtirish davri mobaynida</b>		
		hafta mobay -nida	oy mobay - nida	o‘quv yili mobaynida	hafta mobaynida	oy mobay - nida	Sog‘lomlashtirish davri mobaynida
...							
11.	Jismoniy tarbiya (undan bittasi toza havoda)	2	8	72	sport o‘yinlari	1	3
...							

**2.4-jadval.**

### 6 dan 7 yoshgacha bo‘lgan guruhlarda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarning taxminiy miqdori

<b>№</b>	<b>O‘quv yili mobaynida</b>	<b>Sog‘lomlashtirish davri mobaynida</b>
----------	-----------------------------	--

## Pedagogning professional kompetentligi va mahorati

	<b>Mashg‘ulot-lar nomi</b>	hafta mobay-nida	oy mobay-nida	o‘quv yili mobaynida	hafta mobaynida	oy mobay-nida	Sog‘lomlashtirish davri mobaynida
...							
<b>13.</b>	<b>Jismoniy tarbiya (undan bittasi toza havoda)</b>	2	8	72	sport o‘yinlari	1	3
...							

**2.5-jadval.**

**Bolalar bilan qisqa muddatli guruhlarda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarning taxminiy miqdori**

Nº	Faoliyat turlari	O‘tkazish davriyiligi
...	...	...
10.	Jismoniy madaniyat	Haftasiga ikki marta
... 12	...	...

**2.6-jadval.**

**3 dan 5 yoshgacha bo‘lgan bolaning rivojlanish xaritasi**

№	Bajariladigan amallar	Yoshi (oylarda)									
		4-yil				5-yil					
		3 yoshu 3 oy	3 yoshu 6 oy	3 yoshu 9 oy	4 yosh 3 oy	4 yoshu 6 oy	4 yoshu 9 oy	5 yosh			
1	<b>Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish</b>										
1.1	<b>Yirik motorika</b>										
1	Turli usullarda yuradi (to‘g‘ri, erkin, ko‘rsatilgan yo‘nalishda)		◎								
2	Muvozanatni saqlagan holda chopadi		◎								
3	O‘z joyida ikki oyoqda sakraydi		◎								
4	Oldinga harakatlangan holda sakraydi		◎								
5	Yoy ostidan emaklab o‘tadi		◎								
6	Badantarbiya vaqtidagi mashqlarni qaytaradi			◎							
7	Uch g‘ildirakli velosipedda uchadi			◎							
8	Sport narvoni bo‘ylab yuqoriga va pastga			◎							
9	Kolonna, doiraga to‘g‘rilanishi mumkin			◎							
10	Oyoq uchida, tovonda, orqa bilan, oyoq kaftining tashqi tomonida va tizzasini baland ko‘targan holda yuradi										
11	Arqonda harakatlanish vaqtida muvozanatni saqlaydi										
12	Tizzalarini baland ko‘targan holda chopadi										
13	Uncha baland bo‘lmagan to‘siquidan sakrab o‘tadi						◎				

## Pedagogning professional kompetentligi va mahorati

14	Sakramachoq (skakalka) orqali sakrashga harakat qiladi							✿		
15	Gimnastika skameykasida qo‘li bilan tortilgan holda qorinda emaklaydi									
16	Gimnastika devoriga tirmashib chiqadi									
17	Samokatda uchadi									
<b>1.2</b>	<b>Mayda motorika</b>									
1	Arqonni halqaga kiritadi								✿	
2	Mayda predmetlarni muayyan tartibda taxlaydi									
3	O‘yinchoqlarni mustaqil tarzda qutiga soladi va ularni qutidan oladi		✿							
4	Kattalar yordamida yirik munchoqlarni ipga o‘tkazadi		✿							
5	Predmetlarni bir idishdan boshqa idishga soladi									
6	Tugmalar, kiyim va poyafzal ilgaklarini mustaqil ravishda taqadi va echadi									
7	Mayda, o‘rtा va yirik munchoqlarni namunaga muvofiq ipga o‘tkazadi									
8	Qulf, ilgaklarni ochadi va yopadi, kalitdan foydalanadi									
9	Mayda predmetlar (konstruktur detallari)ni buraydi va teskari burab oladi									
10	Konstruktoring katta va mayda qismlaridan turli predmetlar yasaydi									
11	Namuna bo‘yicha to‘g‘ri chiziq va doira chizadi									
12	Belgilangan chiziqlar bo‘yicha qog‘oz, mato, salfetkalarni taxlaydi									
13	Belgilangan chiziqlar bo‘ylab qog‘ozni qaychi bilan kesadi									
<b>1.3</b>	<b>Sensomotorika</b>									
1	Katta koptoklarni o‘tirgan va turgan holda	✿								

## Pedagogning professional kompetentligi va mahorati

---

	ikki qo‘li bilan masofaga dumalatadi								
2	Predmetni belgilangan nishonga qarata otadi		✿						
3	Koptokni boshqa bolaga dumalatadi yoki otadi		✿						
4	Silliq va g‘adir-budur tekstura (tuzilish)ni ajrata oladi		✿						
5	Ta’mni aniqlaydi		✿						
6	Qo‘g‘irchoqlar solingan kolyaskani uchiradi		✿						
7	O‘ng va chap qo‘li bilan koptokni galma-gal erga uradi								
8	Galma-gal o‘ng va chap tomonga aylanadi								
9	Turli tuzilishlar va yuzaliklarni ajratadi								
10	Uchayotgan, suzayotgan mayda predmetlarni matrap bilan ushlaydi.								
11	Sovun pufakchalarini chiqaradi								
<b>1.4 Sog‘lom turmush tarzi va xavfsizlik</b>									
1	Mustaqil tarzda yuz-qo‘llarini yuvadi, sochiqdan foydalanadi		✿						
2	Taroq va dastro‘mol yoki salfetkadan foydalanadi		✿						
3	Ovqatlanish vaqtida mustaqil tarzda qoshiqdan foydalanadi, ovqatlanishdan keyin og‘zini chayadi		✿						
4	O‘yinchoqlarni yig‘ishtiradi, xonada tarib saqlaydi		✿						
5	Hojatxonadan mustaqil foydalanadi		✿						
6	Tishlarini tozalaydi								
7	Vitaminlarning foydaliligi va sog‘lom ovqatlanish haqida biladi								
8	Ovqatlanishdan oldin qo‘llarini yuvadi								
9	Sanchqi (vilka)dan to‘g‘ri foydalanadi								
10	Tashqi ko‘rinishini tartibga keltiradi								
11	O‘ziga yaxshi qaraydi								

## Pedagogning professional kompetentligi va mahorati

---

12	Yordam ko‘rsatishni iltimos qila oladi										
----	---	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

Bolaning familiyasi, ismi \_\_\_\_\_

Tug‘ilgan sanasi \_\_\_\_\_

MTTga qabul qilingan sana \_\_\_\_\_

Kuzatuv boshlangan sana \_\_\_\_\_

Kuzatuv boshidagi yoshi \_\_\_\_\_

Kuzatuv yakuni sanasi \_\_\_\_\_

**5 dan 7 yoshgacha bo‘lgan bolaning rivojlanish xaritasi**

		Yoshi (oylarda)									
		6-yil				7-yil					
		5 yoshu 3 oy	5 yoshu 6 oy	5 yoshu 9 oy	6 yosh	6 yoshu 3 oy	5 yoshu 6 oy	5 yoshu 9 oy	7 yosh		
<b>1</b>	<b>Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish</b>										
<b>1.1</b>	<b>Yirik motorika</b>										
1	Tovondan oyoq uchiga o‘tgan tarzda yuradi		✿								
2	To‘siqlardan hatlaydi yoki aylanib o‘tadi		✿								
3	Gimnastika skameykasi bo‘ylab muvozanatni saqlagan holda yuradi; qiya taxtada to‘g‘ri va yonlama				✿						
4	Turlicha yugurish usullarini bajaradi (ilonizi, egri-bugri, mokisimon, to‘siqlarni engib o‘tgan ravishda)										
5	Turli usullarda sakraydi										
6	Gimnastika devori bo‘ylab tirmashadi										
7	Kolonnada bittalab, ikkitalab, to‘rttalab yuradi; doirada, sherengada yuradi										
8	Yurish vaqtida turli buyruqlarni bajaradi										
9	Engil, tezkorlik bilan, to‘siqlardan hatlab o‘tgan holda, yo‘nalish va muvozanatni saqlab yuguradi										
10	Turgan joyida burilib, oyoqlarini o‘ngga-chapga qo‘yib sakraydi										
11	Sakramachoqda turli usullarda sakraydi										
12	Arg‘amchi zina, arqon bo‘ylab tirmashadi										
<b>1.2</b>	<b>Mayda motorika</b>										
1	Yuzalikda (ASFALDA) turli chiziqlar chizadi										
2	Katta, o‘rtacha va kichik o‘yinchoqlarni hajmi bo‘yicha mos keladigan qutilarga taqsimlaydi										
3	Murakkab konstruktsiyalarini yig‘adi										

## Pedagogning professional kompetentligi va mahorati

4	Qopchadagi o‘yinchoqlarni paypaslab aytib berishi mumkin									
5	Qog‘ozni chiziq bo‘yicha qirqadi									
6	Taqlid qilinayotgan predmetlar (gul, qush, kapalak, qufl)ni qo‘llari, barmoqlari bilan ko‘rsatadi									
7	Arqonlardan turli bog‘lamalar bog‘laydi									
8	O‘yin faoliyati mobaynida uncha katta bo‘lmagan o‘yinchoqlar bilan o‘ynaydi									
9	Qog‘ozni belgilangan chiziq bo‘ylab tartib bilan yirtadi									
10	Mayda qismlardan iborat bo‘lgan mozaika va pazllar yig‘adi									
<b>1.3 Sensomotorika</b>										
1	To‘pni yuqoriga otadi va uni qayta ilib oladi									
2	Uzatilgan to‘pni turli usullar bilan ilib oladi									
3	To‘sinqi aylanib o‘tgan holda to‘pni klyushka bilan erda aylantiradi									
4	Qum solingan qopchanini nishonga irg‘itadi									
5	Asosiy holatda turib, ko‘krak balandligida to‘pni ikki qo‘li bilan boshqa bolaga uzatadi									
6	Turli analizatorlar (yopiq ko‘zlar, paypaslash, ta’miga qarab aniqlash) yordamida predmetlarni tekshiradi									
7	To‘pni pastdan, bosh ortidan otadi									
8	To‘pni er bo‘ylab ilonizi shaklida aylantiradi									
9	Chang‘i, rolik, ikki g‘ildirakli velosipedda uchadi									
10	Nishonni to‘p bilan ag‘daradi (bouling)									
11	Chambarak (obruch)ni qo‘llari, oyoqlari, beli bilan aylantiradi									

## Pedagogning professional kompetentligi va mahorati

12	Halqalarni belgilangan joyga otadi									
<b>1.4</b>	<b><i>Sog'lom turmush tarzi va xavfsizlik</i></b>									
1	Shaxsiy gigienaga rioya qiladi									
2	Stol atrofida ovqatlanish madaniyatiga rioya qiladi									
3	Vitaminlarning ovqatlanishdagi ahamiyati va rolini biladi									
4	Tananing asosiy qismlari va ularning vazifalarini biladi									
5	Suv iste'mol qilishning muhimligini tushunadi va mustaqil ravishda suv ichish rejimiga rioya qiladi									
6	Piyodalar uchun mo'ljallangan asosiy ko'cha harakati qoidalarini biladi									
7	O'zining tashqi ko'rinishini nazorat qilib boradi									
8	Yordam kerak bo'lganda kattalarga murojaat qilish kerakligini biladi									
9	Tabiat burchagidagi o'simliklar va hayvonlarni parvarish qiladi									
10	Salomatlik uchun zararli bo'lgan odatlarni (chekish, spirtli ichimliklar, olov bilan o'ynash va h.k.) tushunadi va farqlaydi									
11	Bolalar bog'chasida, kzchada, transportda o'zini tutish qoidalariga rioya qiladi									
12	Piyodalar va velosipedchilar uchun mo'ljallangan ko'cha harakati qoidalarini biladi									

Bolaning familiyasi, ismi \_\_\_\_\_

Tug'ilgan sanasi \_\_\_\_\_

MTTga qabul qilingan sana \_\_\_\_\_

Kuzatuv boshlangan sana \_\_\_\_\_

Kuzatuv boshidagi yoshi \_\_\_\_\_

Kuzatuv yakuni sanasi \_\_\_\_\_

**6-7 yoshdagi bolaning maktabga tayyorlik xaritasi**

№	Rivojlanishning kutilayotgan natijasi	Bajaradi			
		doimo	ko‘pincha	ba’zan	hech qachon
<b>1</b>	<b>Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish</b>				
1.1	O‘z imkoniyatlari va yoshi bilan bog‘liq jismoniy rivojlanish me’yorlariga mos ravishda jismoniy faoliik ko‘rsatadi				
1.2	Turli harakatchanlik faolligini uyg‘un ravishda va maqsadli bajarishni biladi				
1.3	Turli hayotiy va o‘quv vaziyatlarida mayda motorika ko‘nikmalaridan foydalanadi				
1.4	O‘z harakatlarini hissiyot va sezgi organlari yordamida boshqaradi				
1.5	Shaxsiy gigiena ko‘nikmalarini qo‘llaydi				
1.6	Xavfsiz hayotiy faoliyat asoslari qoidalariga rioya qiladi				
..	...				
...	...				

Yurtimizda Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yilayotgan quyidagi talablarni alohida e’tirof etish mumkin:

**Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllanishi kompetentsiyasi bo‘yicha:**

**Kichik soha: Yirik motorika**

**Talab:** Bola o‘z tana a‘zolarini boshqaradi, maqsadli to‘g‘ri harakatlanadi

**Kutilayotgan natijalar**

**3-4 yosh**

- turli usullar bilan yuradi (to‘g‘ri, erkin, ko‘rsatilgan yo‘nalishda) ;
- kolonna, doira bo‘lib saflana oladi;
- muvozanatni saqlab yuguradi;
- sport zinasida yuqori va pastga harakatlanadi;
- bir joyda ikki oyoqlab sakraydi;
- oldinga siljib sakraydi ;
- aylana yoyi tagidan emaklab o‘tadi;
- badantarbiya vaqtida mashqlarni takrorlaydi;
- uch oyoqli velosipedda uchadi.

**4-5 yosh**

- oyoq uchida, tovonida, oyoq kaftlarining yon tomoni bilan va tizzalarini yuqori ko‘tarib yuradi;
- arqon ustida muvozanat saqlab yuradi;
- tizzalarini yuqori ko‘tarib yuguradi;
- past to‘siqlar ustidan sakrab o‘tadi;

- arqonda sakrashga harakat qiladi;
- gimnastika skameykasi ustida qo‘li bilan tortilib qornida suriladi;
- gimnastika narvonida harakatlanadi;
- samokatda uchadi.

### **5-6 yosh**

- oyoqlarini uchidan tovoniga almashtirib yuradi;
- to‘sıqlarni aylanib yoki xatlab o‘tadi;
- gimnastika skameykasida muvozanatni saqlagan xolda, qadamba qadam yuradi;
- qiya doska ustida to‘g‘ri va yoni bilan yuradi;
- yugurishning har xil turlarini bajaradi (ilonizi, zigzag, mokisimon, to‘sıqlarni engib o‘tib) ;
  - turli usullar bilan sakraydi;
  - bir necha predmet oralab emaklaydi;
  - qornida yotib, qo‘llari bilan tortilib emaklaydi;
  - gimnastika narvoniga o‘rmalab chiqadi.

### 6-7 yosh

- bir, ikki, to‘rtta bo‘lib saflanadi, doira bo‘lib, qator bo‘lib yuradi;
- yurishda turli topshiriqlarni bajaradi;
- engil yuguradi (shiddat bilan, to‘sqliarni engib o‘tib, yo‘nalish va muvozanatni saqlagan holda) ;
- bir joyda aylanib sakraydi, oyoqlarini o‘ngga va chapga almashtirib sakraydi;
- arqonda turli usullarda sakraydi;
- arqonli narvon, yo‘g‘on arqonda yuqoriga ko‘tariladi;
- ikki oyoqli velosipedda uchadi.

### Kichik soha: Sensomotorika

**Talab:** Bola sezgi organlari yordamida o‘z harakatlarini boshqarishga qodir  
**Kutilayotgan natijalar**

### 3-4 yosh

- katta koptoklarni masofaga, ikki qo‘l bilan, o‘tirib, turib irg‘itadi;
- belgilangan nishonga predmetni irg‘itadi;
- boshqa bolaga koptokni irg‘itadi yoki otadi;
- silliq va notekis teksturaning farqiga boradi;
- ta’mni aniqlaydi;
- qo‘g‘irchoqli aravachani itaradi.

### 4-5 yosh

- koptokni erga o‘ng va chap qo‘li bilan galma-gal uradi;
- galma gal chap va o‘ng tomon aylanadi;
- turli tekstura va yuzaning farqiga boradi;
- matrap bilan mayda uchayotgan, suzayotgan predmetlarni tutadi;
- sovun ko‘piklarini uchiradi.

### 5-6 yosh

- koptokni osmonga irg‘itib, tutib oladi;
- uzatilgan koptokni turli usullar bilan ilib oladi;
- koptokni klyushka bilan to‘sqliarora olib o‘tadi;
- qumli xaltachani nishonga otadi;
- boshqa bolaga koptokni ikki qo‘llab asosiy vaziyatdan uzatadi;
- turli analizatorlar orqali predmetni tadqiq qiladi (ko‘zi bog‘langan holda, ta’miga qarab, paypaslab).

### 6-7 yosh

- pastdan, boshi uzra koptokni irg‘itadi;
- koptokni er bo‘ylab ilonizi qilib irg‘itadi;
- chanada, rolikda, ikki oyoqli velosipedda uchadi;
- koptok bilan nishonni urib tushiradi (bouling) ;
- gardishni qo‘lida, oyog‘ida, belida aylantiradi;
- halqalarni halqa ustuniga otib tushiradi.

### Kichik soha: Sog‘lom turmush tarzi va xavfsizlik

**Talab:** Bola sog‘liqni saqlash malakalarini namoyon qiladi. Bola xavfsiz sog‘lom taom va hayot xavfsizligi qoidalari haqida tushunchaga ega

#### Kutilayotgan natijalar

##### 3-4 yosh

- mustaqil qo‘li, yuzini yuvadi, tishini tozalaydi, sochiqdan foydalanadi;
- taroq va dastro‘mol yoki salfetkadan foydalanadi;
- ovqat vaqtida mustaqil qoshiq bilan foydalanadi, ovqatdan so‘ng og‘zini chayadi ;
- xonada tartibni saqlaydi, o‘zidan keyin o‘yinchoqlarni yig‘ishtiradi;
- mustaqil hojatxonaga boradi;
- xavfli bo‘ladigan premetlarni farqiga boradi.

##### 4-5 yosh

- vitaminlar va sog‘lom ovqatlanish foydasini biladi;
- ovqatlanish oldidan qo‘lini yuvadi;
- sanchqidan to‘g‘ri foydalanadi;
- o‘z tashqi ko‘rinishini tartibga keltiradi;
- hojatxonadan so‘ng o‘z-o‘ziga xizmat qiladi;
- yordam so‘ray oladi;
- xavfli bo‘lgan premetlar, joylar va moddalar nomini biladi (zinapoya, boloxona, ochiq oyna, issiq suv, olov, dori, o‘tkir asboblar, elektr);
- notanish insonlar bilan ketish mumkin emasligini tushuntiradi;
- qanday qilib gavdani to‘g‘ri tutish kerakligini tushuntirib bera oladi.

##### 5-6 yosh

- shaxsiy gigienaga rioya qiladi;
- stol atrofida ovqatlanish madaniyatiga rioya etadi;
- vitaminlar va ularni taomdagи foydasini biladi;
- salomatlik haqida qayg‘urish muhimligini anglaydi;
- asosiy tana a’zolari va ularning funktsiyalarini biladi;
- piyodalar uchun asosiy yo‘l qoidalarini biladi;
- suv ichish foydasini anglaydi va mustaqil suv ichish rejimini bajaradi;
- xavfsiz xatti-harakatning asosiy qoidalarini biladi va ularga rioya qiladi;
- yordam zarur bo‘lganda kattalarga murojaat qilish kerakligini biladi;
- xavfli faoliyatlar nomini aytib beradi: xavfli joylarda o‘ynash ( mashina qatnovi yo‘laklarida, qurilish yaqinida, notanish suv havzalarida, ko‘l, oqar suvlarda cho‘milish), velosipedda mashina qatnovi yo‘llarida.

### 6-7 yosh

- o‘zining tashqi ko‘rinishiga etibor beradi;
- jismoniy mashqlarni mustaqil bajaradi;
- tabiat burchagidagi o‘simliklar va jonzotlarni parvarishlaydi;
- salomatlikka zararli bo‘lgan xulq shakllarini anglaydi (chekish, ichkilikbozlik, olov bilan o‘ynash va hokazo) ;
- bog‘chada, ko‘chada, transportda yurish qoidalariga rioya qiladi;
- piyodalar va velosipedchilar uchun yo‘l qoidalarini biladi;
- yong‘in xavfsizligi -101; milliy gvardiya- 102; tez yordam -103; gaz xizmati -104 telefon raqamlarini biladi;
- xavfli vaziyatlarda qanday yo‘l tutishni biladi va tushuntiradi
- supermarketda, shaharda, qishloqda, dalada yo‘qolib qolsa, o‘zini qanday tutish kerakligini biladi.

**Xulosa o‘rnida:** “Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi” sohasidagi o‘quv-tarbiyaviy faoliyat yakunlanganidan so‘ng 6-7 yoshli bola:

- o‘z imkoniyatlari va yoshi bilan bog‘liq jismoniy rivojlanish me’yorlariga mos ravishda jismoniy faollik ko‘rsatadi;
- turli harakatchanlik faolligini uyg‘un ravishda va maqsadli bajarishni biladi;
- turli hayotiy va o‘quv vaziyatlarida mayda motorika ko‘nikmalaridan foydalanadi;
- o‘z harakatlarini hissiyot va sezgi organlari yordamida boshqaradi;
- shaxsiy gigiena malakalarini qo‘llaydi;
- sog‘lom turmush tarzi va ovqatlanish asoslarini biladi;
- xavfsiz hayotiy faoliyat asoslari qoidalariga rioya qiladi.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Kompetentlik nazariyasi va uning bosqichlari haqida nimalarni bilasiz?
2. Kompetentsiyalar nima?
3. Kompetentlik nima?
4. Pedagog kompetentsiyasi haqida nimalar bilasiz?
5. Kasbiy kompetentsiyaga ta’rif bering.
6. Jismoniy faoliyatiga oid kompetentsiya turlarini tushuntirib bering.
7. Professional kompetentlikni tushuntirib bering.
8. Pedagog professional kompetentligi masalasi bo‘yicha kimlar ilmiy tadqiqotlarni olib borishgan?
9. Trener-o‘qituvchining autopsixologik kompetentsiyalariga nimalar kiradi?
10. Pedagogik maqsadning o‘ziga xosligini qanday bilish mumkin?
11. Pedagogik faoliyatning o‘ziga xosligini qanday farqlash mumkin?
12. “Kompetentlik zinasi” nima?
13. “Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi” sohasidagi o‘quv-tarbiyaviy faoliyat yakunlanganidan so‘ng 6-7 yoshli bolada qanday

kompetentsiyalar shakllanadi?

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Asqarova O'.M. Pedagogika: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik / O'.M. Asqarova, M. Xayitboyev, V.S. Nishonov; O'zR oliv va o'rta-maxsus ta'lif vazirligi. – T.: "Talqin", 2008. – 288 b.
2. Abdullaeva Sh.X. Pedagog professional kompetentliligini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari: Psixol.f.d. (DSc) ... dis-ya avtoreferati: 19.00.05. – T.: O'zMU, 2019. – 61 b.
3. Umumiy pedagogika: Darslik / R.A. Mavlonova, N.H. Rahmonqulova, K.O. Matnazarova, M.K. Shirinov, S. Hafizov. – T.: "Fan va texnologiya", 2018. – 528 b.
4. Grosheva I.V., Evstafeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Djanpeisova G.E. "Ilk qadam" Maktabgacha ta'lif muassasasining Davlat o'quv dasturi. – T.: MTV, 2018. – 60 b.
5. Jabakov V.E. Pedagogicheskoe upravlenie kachestvom podgotovki spetsialista fizicheskoy kultury. Monografiya. – Chelyabinsk: Izd-vo Yuj.-Ural. gos. guman.-ped. un-ta, 2017. – 282 s. – ISBN 978-5-906908-34-6
6. Andriadi I.P. Osnovy pedagogicheskogo masterstva / Andriadi I.P.. – 2-e izd. – M.: NITS INFRA-M, 2016. – 200 s. – ISBN 978-5-16-011222-0
7. Jabakov V.E. Pedagogicheskoe masterstvo uchitelya fizicheskoy kultury [Tekst]: uchebnoe posobie / V.E. Jabakov, T.V. Jabakova. – Chelyabinsk: Izd-vo Yujno-Uralskogo gosudarstvennogo gumanitarno-pedagogicheskogo universiteta, 2016. – 195 s.
8. Raven Dj. Kompetentnost v sovremenном обществе: выявление, развитие и реализация / Raven Dj. Per. s angl. – M. : Kogito-TSentr, 2002. – 396 s. – ISBN 5-89353-052-7



## **AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI**

**1-AMALIY MASHG‘ULOT MAVZUSI.  
TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK KOMPETENTLIKNI  
RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI VA PEDAGOGNING MAHORATI,  
SHAXSIY-KASBIY MALAKALARI**

**Mashg‘ulotning borishi**

**1-topshiriq.** **Mashg‘ulotda “Aqliy hujum” metodidan foydalaniladi.**

**“Aqliy hujum” savoli:**

1. “Pedagog” deb kimga aytildi?  
Javoblar tinglanadi va xulosalanadi.

**2-topshiriq.** **“Pinbord” metodi o‘tkaziladi.**

“**Pinbord metodi**” – vazifalarni hal etish bo‘yicha g‘oyalarni tizimlashtirish va guruhlashtirish va yagona nuqtai nazarni ishlab chiqish imkonini beradi. Ta’lim beruvchi tomonidan berilgan vazifalarni hal etish bo‘yicha ta’lim oluvchilarga o‘z nuqtai-nazarini ifodalashni taklif etadi. Pinbord metodidan yangi mavzu bo‘yicha birlamchi bilimlarini aniqlash maqsadida foydalanamiz.

Metodni qo‘yidagicha qo‘llash tavsiya etiladi: ta’lim oluvchilarni rangli kartochkalar yordamida kichik guruhlarga ajratiladi va vazifalar beriladi. Guruhlarga vazifalarni bajarishlari uchun rangli kartochkalar va markerlar tarqatiladi. Berilgan vazifani kichik guruh a’zolari kelishilgan holda qog‘ozlarga yozib boradi. Guruhdan bitta ishtirokchi yozadi, qolgan ishtirokchilar vazifa javoblarini aytib turadi. Har bir fikr alohida bitta qog‘ozga yoziladi. Keyingi fikr yana bir boshqa rangli kartochkaga yoziladi. Shu tariqa, nechta fikr bo‘lsa, shuncha rangli kartochka ishlatiladi. Vazifani bajarishga 5 daqiqa vaqt beriladi. Vazifa bajarib bo‘lgandan keyin, rangli kartochkalar magnitlar yordamida doskaga mahkamlanadi va taqdimot qilinadi. Taqdimotga 3-5 daqiqadan vaqt ajratiladi. Barcha kichik guruhlar taqdimotidan keyin guruhlar bilan birgalikda bajarilgan vazifalar muhokama va tahlil qilinadi.

“Pinbord” metodi bo‘yicha kichik guruhlarga quyidagicha vazifa beriladi:

*“Maktabgacha yoshdag‘ bolalarda jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllanishida qanday omillar ta’sir ko‘rsatadi?”.*

**3-topshiriq.** **Mashg‘ulotning amaliy qismida tinglovchilar kichik guruhlarga ajratilib, “FSMU” metodi qo‘llaniladi.**

Raqamli kartochkalar orqali 4 ta kichik guruhlar shakllantiriladi. Har bir kichik guruhga tarqatma materiallar beriladi.

**1-guruhga savol:**

3-4 yoshli bolada jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini

shakllanishida “**yirik motorika**”qanday ahamiyatga ega?

F- fikringizni bayon eting

S- fikringizning bayoniga sabab ko‘rsating.

M- ko‘rsatilgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring.

U- fikringizni umumlashtiring.

### 2-guruhga savol:

4-5 yoshli bolada jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllanishida “**yirik motorika**”qanday ahamiyatga ega?

F- fikringizni bayon eting

S- fikringizning bayoniga sabab ko‘rsating.

M- ko‘rsatilgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring.

U- fikringizni umumlashtiring.

### 3-guruhga savol:

5-6 yoshli bolada jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllanishida “**yirik motorika**”qanday ahamiyatga ega?

F- fikringizni bayon eting

S- fikringizning bayoniga sabab ko‘rsating.

M- ko‘rsatilgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring.

U- fikringizni umumlashtiring.

### 4-guruhga savol:

6-7 yoshli bolada jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllanishida “**yirik motorika**”qanday ahamiyatga ega?

F- fikringizni bayon eting

S- fikringizning bayoniga sabab ko‘rsating.

M- ko‘rsatilgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring.

U- fikringizni umumlashtiring.

Har bir kichik guruuh berilgan savollar bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bayon etadilar. Topshiriqni bajarishga 10 daqiqa vaqt beriladi. Berilgan vaqt tugagandan so‘ng, kichik guruhlardagi topshiriq varaqalari yig‘ib olinadi. So‘ngra kichik guruuhlar o‘z topshiriqlariga berilgan javobni taqdimot qilishadi. Har bir taqdimotchiga 3 daqiqadan vaqt beriladi. Har bir taqdimotdan so‘ng savol-javob orqali muhokama bo‘lib o‘tadi. Boshqa kichik gurug‘lar a’zolari o‘z-fikr mulohazalari orqali berilgan javoblarni to‘ldirishi yoki takliflar berishi mumkin.

Professor-o‘qituvchi esa har bir taqdimotdan so‘ng FSMU bo‘yicha berilgan savolga keltirilgan javoblarni to‘ldiradi va umumlashtiradi.

**2-AMALIY MASHG‘ULOT MAVZUSI.**  
**PEDAGOGNING AUTOPSIXOLOGIK PROFESSIONAL**  
**KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH USULLARI**

**Mashg‘ulotning borishi**

**1-topshiriq. Mashg‘ulotda “Aqliy hujum” metodidan foydalaniladi.**

**“Aqliy hujum” savoli:**

1. Qanday tarbiya turlarini bilasiz?

Javoblar tinglanadi va muhokama qilinadi.

Mavzu bo‘yicha mini-ma’ruza o‘tkaziladi.

**Mini-ma’ruza matni:**

**Tarbiya turlari** – tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorlikdagi faoliyati va o‘zaro bir-biriga ta’sir ko‘rsatishidir.

**Tarbiya turlarini** o‘rganish, tahlil qilish, bu usullardan pedagogik jarayonda foydalinish, ko‘nikma va malakalarni egallashni osonlashtirish uchun ularni shartli ravishda bir necha guruhgaga ajratish mumkin: o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, axloqiy, huquqiy, ekologik, iqtisodiy, estetik, jismoniy kabi turlari mavjud.

**Axloqiy tarbiya.** Axloq, xulq va atvor arabcha so‘z bo‘lib, ular o‘zbek tilida ham o‘z ma’nosida ishlataladi. Ayrim adabiyotlarda axloq kishilarning har bir jamiyatga xos xulq normalari majmui deyilsa, boshqalarida esa, ijtimoiy ong shakllaridan biri, sotsial tartib-qoida bo‘lib, bu tartib-qoida ijtimoiy hayotning istisosiz hamma sohalarida kishilarning xatti-harakatini tartibga solish funktsiyasini bajaradi deyiladi.

**Huquqiy tarbiya.** Mamlakatimizda juda katta ijtimoiy – iqtisodiy o‘zgarishlar ro‘y berganligi, yangi jamiyat barpo etilganligi natijasida qonunchilik va huquq – tartibotni yanada mustahkamlash, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini kuchaytirish tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Huquqiy tarbiyaning etarli darajada shakllanmaganligi, o‘quvchida mas’uliyat tuyg‘usining etarlicha rivojlanmaganligida, oilaga va jamiyatga nisbatan o‘z burchini bilmaslik yoki tan olmaslik kabi urinishlarida ko‘rinadi. Hozirga davrda o‘quvchilar bilan huquqiy tarbiya berishning yangi shakllari qo‘llanilmoqda. To‘plangan ilmiy bilimlardan, pedagogik tajribalardan oqilona foydalanish, o‘quvchilarga davlatimiz qonunlari va qoidalariiga muntazam rioya qilish ko‘nikmalarini singdirish huquqiy tarbiyaning samarali amalga oshirish garovidir.

**Ekologik tarbiya.** Ekologik tarbiya insonning atrof-muhitga nisbatan munosabatini tarbiyalashdir. Ekologik ta’lim-tarbiya umumiyligi ta’lim-tarbiyaning yangi shakli va tarkibiy qismi bo‘lib, ta’lim muassasalari barcha fanlarni o‘qitish

amalga oshirilishi ko‘zda tutiladi. Ekologik ta’lim-tarbiyadan bosh maqsad ham yosh avlodda atrof-muhit va uning muammolariga ongli munosabatni shakllantirishdan iboratdir.

**Iqtisodiy tarbiya.** O‘quvchilarga o‘quv muassasasi va oila sharoitida iqtisodiy tarbiya berish ko‘pdan beri pedagogikaning asosiy muammolaridan biri bo‘lib kelmokda. Bozor iqtisodiga o‘tilayotgan bir paytda yoshlarda iqtisodiy tafakkurni tarbiyalash ayniqsa muhimdir. Iqtisodiy tarbiyani barcha maxsus fanlar orqali amalga oshirish mumkin.

**Estetik tarbiya.** Estetik tarbiya ancha keng ma’noga ega bo‘lib, shaxsni tabiat va jamiyatdagi go‘zalliklarni ideal nuqtai nazardan idrok etishga o‘rgatadi. Shuningdek, estetik faoliyatga, voqelikni go‘zallik qonun-qoidalari asosida o‘zgartirishga qobiliyatli shaxsni tarbiyalaydi.

**Jismoniy tarbiya.** Jismoniy tarbiyaning asosiy maqsadi-o‘quvchilar tanasidagi barcha a’zolarni sog‘lom o‘sishini ta’minlash barobarida ularni aqliy va jismoniy mehnatga, shuningdek, Vatan mudofaasiga tayyorlashdir. O‘quvchilarning jismoniy kamolotlari uchun sharoit yaratish va pedagogik boshqarish jismoniy tarbiyaning vazifasidir. Jismoniy tarbiya tizimida jarayoniy kamolot diagnostikasi muhim o‘rin tutadi. Jismoniy kamolot jismoniy tarbiya saviyasi, fan tili bilan aytganda, jismoniy tarbiya samaradorligi ko‘rsatgichidir. Agar diagnostika o‘quvchilarning yoki biror-bir o‘quvchining jismoniy va tibbiy ko‘rsatgichlari pasayib ketayotganligini ko‘rsatsa, demak, zudlik bilan jismoniy tarbiyadagi mavjud tizimni o‘zgartirish kerak.

### **2-topshiriq. Mashg‘ulotda “Aqliy hujum” metodidan foydalilanildi.**

#### **“Aqliy hujum” savoli:**

1. Jismoniy tarbiya mashg‘uloti jarayonida Siz qanday tarbiya usullaridan foydalanasiz?

Javoblar tinglanadi va muhokama qilinadi.

Mavzu bo‘yicha mini-ma’ruza o‘tkaziladi.

#### **Mini-ma’ruza matni:**

**Tarbiya usullari – bu tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg‘ulari va xulqiga ta’sir etish usullaridir.**

Tarbiya maqsadi va mazmuni usullarni to‘g‘ri tanlashga imkon beradi. Maqsad qanday bo‘lsa, unga erishish usullari unga muvofiq bo‘lishi zarur.

Tarbiya usullari bu tarbiyachi va jamoa tomonidan g‘oyaviy-axlokiy e’tikodlar, siyosiy bilimlar, xis - tuygu va odatlar, did, faxm -farosat, iymonni tarkib toptirish maksadida ko‘llaniladigan shaxsga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish usullaridir. Shuningdek, tarbiya usullari tarbiyalanuvchining o‘z shaxsini takomillashtirishga, xarakat kilishni xam nazarda tutadi.

Tarbiya usullarining quyidagi turlari mavjud:

- ✓ so‘z orqali;
- ✓ ko‘rgazmali;
- ✓ amaliy;
- ✓ namuna bo‘lish;
- ✓ rag‘batlantirish;
- ✓ jazolash.

Bu usullar axlok, odob va tarbiyaning barcha tomonlarini o‘zida mujassamlashtirgan. Xalk pedagogikasida turli xil tarbiya usullari, vositalardan foydalanilgan. Bu usul va vositalar nixoyatda xilma - xil bo‘lib, ko‘p tomonlari bilan ilmiy pedagogikadan ustunlik kiladi. Chunki, bu usullar ilmiy pedagogikaning shakllanishida xam o‘z ta’sirini o‘tkazgan.

O‘quvchilarda o‘z-o‘zini tarbiyalashni shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega. O‘z-o‘zini tarbiyalash - shaxsning o‘z psixologik sifatlari, xulqi, yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklari qadr-qimmati, kamchiliklarini baholay olishidir.

O‘z-o‘zini tarbiyalash orqali o‘ziga ta’sir qilishning quyidagi usullari mavjud:

- ✓ o‘z-o‘zini ishontirish;
- ✓ o‘z-o‘ziga buyruq berish;
- ✓ o‘z-o‘zini majbur qilish;
- ✓ o‘z-o‘zini rag‘batlantirish;
- ✓ o‘z-o‘zini jazolash, o‘z-o‘zini mashq qildirish.

Yuqorida keltirib o‘tilgan asosiy tarbiya usullari ta’lim-tarbiya jarayonida maqsadni amalga oshirishga qaratilgan bo‘lib, bir vaziyatni boshqarish, tarbiyalanuvchilarga pedagogik ta’sir ko‘rsatish va to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirish, jismoniy mashklar va sportda qiyinchiliklarni engib o‘tishga mo‘ljallangandir.

### **Mini-ma’ruzadan so‘ng, “Muammoli vaziyat” metodidan foydalaniladi.**

Tinglovchilar 4 ta kichik guruhlarga ajratiladi.

Har bir guruhgaga o‘z ish faoliyatlarida tarbiyalanuvchilar bilan duch kelingan muammoli vaziyatlar va ularni bartaraf etishda ma’lum bir tarbiya usulidan qay ko‘rinishda foydalanishganligini tushuntirib berishlari so‘raladi.

“Muammoli vaziyat” metodi – ta’lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning echimini topish bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta’lim oluvchilarning bilim darajalari va tajribalariga mos kelishi kerak. “Muammoli vaziyat” metodi qo‘llanilganda ta’lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning echimini topishni o‘rganadilar.

“Muammoli vaziyat” metodi quyidagi bosqichlarda olib boriladi:

**1.** Ta’lim beruvchi tinglovchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.

**2.** Ta’lim beruvchi tinglovchilarni 6 ta kichik guruhlarga ajratadi.

**3.** Kichik guruqlar berilgan o‘z faoliyatlarida duch kelingan biror muammoli vaziyatni o‘rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va berilgan tarbiya usulidan qay tarzda foydalanganliklarini tushuntirib, taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.

**4.** Barcha taqdimotdan so‘ng fikrlar jamlanadi. Guruh ta’lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatlarni echishda tarbiya usullaridan foydalanish yo‘llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

### **Kichik guruhlarga topshiriqlar:**

**1-guruhga** topshiriq: “So‘z orqali” tarbiya usulidan 3-4 yoshlilar guruhi bilan bo‘ladigan faoliyatingizda qanday muammoni bartaraf etishda foydalangansiz?;

**2-guruhga** topshiriq: “Ko‘rgazmali” tarbiya usulidan 4-5 yoshlilar guruhi bilan bo‘ladigan faoliyatingizda qanday muammoni bartaraf etishda foydalangansiz?;

**3-guruhga** topshiriq: “Amaliy” tarbiya usulidan 5-6 yoshlilar guruhi bilan bo‘ladigan faoliyatingizda qanday muammoni bartaraf etishda foydalangansiz?;

**4-guruhga** topshiriq: “Namuna bo‘lish” tarbiya usulidan 6-7 yoshlilar guruhi bilan bo‘ladigan faoliyatingizda qanday muammoni bartaraf etishda foydalangansiz?;

### **Mavzuni xulosalash:**

Pedagogika fani va amaliyoti har doim rivojlanib borar ekan, unga muvofiq ravishda tarbiya jarayoni ham takomillashib boraveradi.

### **O‘z-o‘zini samarali boshqarish (rivojlantirish)ning 37 qoidasi**

1. Kamolotga va takrorlanmas (yagona) bo‘lishga intiling!
2. O‘z-o‘zini tahlil qilishga e’tibor qarating!
3. O‘zingizga nisbatan talabchan bo‘ling!
4. O‘zingiz uchun goho-goho dam olishni uyshtiring, “mehnatning quli” bo‘lmang!
5. Boshqalarga achining, biroq, o‘zingizga achinishingizga yo‘l qo‘ymang!
6. O‘z orzu-istiklarining quliga aylanmang!
7. O‘zingiz uchun o‘ziga xos hayot tarzini yarating!
8. Muloqot madaniyatini o‘zlashtiring!
9. Jiddiylik, bosiqlik talab etilganda jiddiy, bosiq bo‘ling!
10. O‘zingizning kuchingiz va qobiliyatingizga ishoning!
11. Vaqt tutqich bermaydi, uni qo‘ldan boy bermang!
12. Xatolar saboq chiqarishingizga yordam beradi, unutmang, hatto qirollar ham xatoga yo‘l qo‘yadilar.
13. Vaqt-vaqt bilan tanaffus qilishga, nafas rostlashga harakat qiling!
14. Ilm o‘rganing!

## Pedagogning professional kompetentligi va mahorati

---

15. O‘tmishga nazar tashlamang, bugun bilan yashang va ertani o‘ylang!
16. Mehnat insonni takomillashtirishini unutmang!
17. Harakatlaringizning izchil bo‘lishiga erishing!
18. Bugun bajarishingiz mumkin bo‘lgan ishni ertaga qoldirmang!
19. Boshqalarni nima uchun kechira olmasangiz, o‘zingizni ham ana shular uchun kechirmang!
20. O‘z ustingizdan hukmronlik qilishingiz, boshqalarning ustidan hukmronlik qilishingizning garovidir!
21. Boshqalardan ular mukammal bo‘lmaqning uchun xafa bo‘lmang!
22. O‘z hissiyotlaringizni boshqara olsangiz, engilmas bo‘lasiz!
23. Ruhiy zo‘riqishlar (stress)larni bartaraf etishni o‘rganining!
24. Irodangizni chiniqtirib boring!
25. O‘z tanangizni nazorat qilishni o‘rganining, uning hukmdoriga aylanasiz!
26. Kamchiliklaringiz bilan kurashishda mohir jangchi bo‘ling!
27. “Oq qarg‘a” bo‘lish (boshqalardan ajralib turish)dan qo‘rmang!
28. O‘z oldingizga aniq maqsad qo‘yishni o‘rganining!
29. Oliy maqsadlarga intilishni o‘rganining!
30. Ko‘philik o‘rniga ishlash – qorga yozish kabi befoyda ekanligini unutmang!
31. Tartib - tartibli bo‘lishning muhim omili!
32. O‘zingizni himoya qilishni, g‘ururli bo‘lishni o‘rganining!
33. Izzattalabligingizdan foydalanib, qirol bo‘ling!
34. Hiyla-nayranglarning qurbanini bo‘lmang!
35. Xatti-harakatlaringiz ustidan intuitsiya (ichki sezgi)ngizning ustun kelishiga yo‘l qo‘yib bering!
36. O‘zingizga tez-tez “Nima uchun?” degan savolni berib turing!
37. Muvaffaqiyatsizliklardan cho‘chimang – ular Sizni olg‘a intilishga rag‘batlantiradi!



## KEYSLAR BANKI

## 1-MIKROKEYS

Har qanday pedagogik faoliyatning samaradorligi uning natijasi yoki natijalari bilan o‘lchanadi. Shaxs faoliyati, bilimi, ko‘nikma va malakalarini baholashda muayyan mezonlarga tayanib ish ko‘riladi.

Mezonlarning ishlab chiqilishi faoliyat, bilim, ko‘nikma va malakalarining ob’ektiv, xolis baholanishini ta’minlaydi.

### Mikrokeys topshirig‘i:

O‘qituvchilarning innovatsion faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqing.

### Ta’lim oluvchilarga tavsiya etiladigan manbalar:

Innovatsiya va pedagogik innovatsiyalarga oid material va adabiyotlar.

### Ta’lim oluvchilar uchun ko‘rsatmalar:

1. Keys mohiyatini etarlicha anglab oling.
2. Pedagogika innovatsiyalarga doir bilimlaringizni tizimlang.
3. Mavzuga oid bilimlaringizni tizimlash asosida echimni asoslashga uring.
4. Echimni bayon eting.

### Mikrokeysni echish jarayoni:

1. Ta’lim oluvchilar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda etarlicha anglab oladi.

2. Ta’lim oluvchi sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan pedagogik innovatsiyalarga doir bilimlarni tizimlashga urinadi.

3. Ta’lim oluvchi mavzuga oid bilimlarini tizimlagan holda echimni asoslashga uring.

4. Echim bayon etiladi.

### O‘qituvchining echimi

### Pedagoglarning innovatsion faoliyatini baholash mezonlari

Holat	Mezonlar
Pedagogning innovatsion faoliyati	<ol style="list-style-type: none"><li>1. Yangiliklardan izchil xabardor bo‘lish.</li><li>2. O‘z fani bo‘yicha yangiliklarni yaratish xohishiga egalik.</li><li>3. O‘zlashtirgan yoki o‘zi asoslangan yangiliklarni amaliyotga tadbiq etishda qat’iyatlilik ko‘rsatish.</li><li>4. O‘z faoliyatida innovatsiyalarni faol qo‘llash</li></ol>

## 2-MIKROKEYS

Birinchi sinfda o‘qiyotgan Zarifa matematikadan misolni birinchi va to‘g‘ri echgani uchun “besh” baho oldi. O‘qituvchi uni buning uchun maqtadi.

Zarifa uyga qaytgach, shoshganicha, bu xabarни oyisiga aytdi. U kundaligini olib ko‘rsataman desa, oyisi hatto qayrilib qaramadi xam.

Oyisi Zarifaning xabarini sovuqqonlik bilan tingladi va qiziga qayrilab ham qaramasdan dedi:

- Besh oldingmi? Juda soz, barakalla, - endi ovqat tayyorlashimga xalaqit bermagin-da, o‘ynab kel!

Zarifa tushlik ham qilmay ko‘chaga chiqib ketdi.

### Savollar:

1. Vaziyatni qanday baholaysiz?
2. Zarifaning onasi tarbiyaning qaysi tamoyillariga zid ish qildi?
3. Shu kabi vaziyatlar Zarifaning tarbiyasiga qanday ta’sir o’tkazadi.

### Tinglovchilarga tavsiya etiladigan manbalar:

“Pedagogika” va “Psixologiya”ga oid adabiyotlar.

### Tinglovchilar uchun ko‘rsatmalar:

1. Keys mohiyatini etarlicha anglab oling.
2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi tarbiya tamoyillarini aniqlang.
3. Aniqlangan tarbiya tamoyillari orasidan muammoga barchasidan ko‘proq dahldor bo‘lgan, eng muhim tamoyil (yoki ikkita tamoyil)ni ajrating.
4. Ana shu tamoyil (tamoyillar) asosida echimni asoslashga uring.
5. Echimni bayon eting.

### O‘qituvchining echimi

1. Zarifaning onasi tarbiyada bolaning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish, tarbiya jarayonida rag‘batlantirish tamoyillariga zid ish qildi.
2. Shu kabi vaziyatlar Zarifaning tarbiyasiga salbiy ta’sir o’tkazadi, astasekin unda qo‘rslik, befarqlik, o‘z-o‘zini past baholash, o‘ziga va atrofdagilarga ishonmaslik kabi xislatlar shakllanadi.

## 3-MIKROKEYS

Ingliz tili darsida o‘qituvchi ta’lim oluvchilarga: “Bir-biringdan ko‘chirma!”, “O‘zing yoz, birovlarining daftariga qarama!”, “Aqllaring bor -mi o‘zi, shu oddiy narsani xam yozib berolmaysanlar-a!” singari zaharxanda so‘zlar bilan bir necha bor qattiq tanbeh berdi.

Boshqa sinfda esa o‘qituvchi darsiga yo‘l-yo‘lakay, albatta, ammo ta’sirli qilib: “Bolalar bir-biringizdan berkitmanglar, bu yaxshi emas, hech kim sizlardan ko‘chirayotgani yo‘q!”, - dedi.

### Savollar:

Ta’lim jarayonida individual nazorat topshiriqlarini har bir ta’lim oluvchi mustaqil bajarishi lozim.

1. Birinchi o‘qituvchining ta’lim oluvchilarga bu boradagi yondashuvi to‘g‘rimi? Pedagogik talabni shunday tarzda qo‘yish qanchalik to‘g‘ri?

2. Ikkinchi o‘qituvchi tomonidan pedagogik talab buzilmoqda. O‘qituvchining xatti-harakatini oqlash mumkinmi?

### Tinglovchilarga tavsiya etiladigan material:

“Pedagogik talab” va uning mohiyatini yoritishga oid materiallar. Tinglovchilar uchun ko‘rsatmalar:

1. Keys mohiyatini etarlicha anglab oling.
2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang.
3. Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko‘proq dahldor bo‘lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajrating.

4. Ana shu omillar asosida echimni asoslashga uring.
5. Echimni bayon eting.

### O'qituvchining echimi

1. Birinchi o'qituvchi tomonidan garchi pedagogik talab qo'yilayotgan bo'lsa-da, biroq, bu talabning yuqoridagi kabi ifodalash mumkin emas. Aslida o'qituvchining yondashuvi pedagogik talabni ifodalashi lozim. Ammo qo'pollik, qo'rslik bilan qo'yilgan pedagogik talab hech qanday tarbiyaviy ahamiyat kasb etmaydi, aksincha, ta'sir ko'rsatadi. Qolaversa, o'qituvchining yondashuvi bilan ta'lim oluvchilarda bir-birlariga nisbatan ishonchsizlik, bir-birini hurmat qilmaslik kabi sifatlar qaror topishiga zamin yaratib beradi.

2. Bir qaraganda ikkinchi o'qituvchi tomonidan pedagogik talab buzilmoqda. Ammo, ta'lim oluvchilarga nisbatan xayrixohlik, samimiylilik ta'lim oluvchilarga aksincha ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchining o'zlariga nisbatan xayrixohligini his etgan ta'lim oluvchilar pedagogik talabga zid ish qilmaslikka harakat qilishadi.

### 4-MIKROKEYS

Madina 2 yoshda u juda ham quvnoq, hamma bilan oson muloqotga kirishadigan, juda ko'p she'rlar biladigan qiz. Uni bog'chaga berishdi va bir oy davomida bola injiq, yig'loqi, duduqlanadigan bo'lib qoldi.

Pedagog ota-onani oldida doim qizga nisbatan xushmuomala bo'lib, erkalatardi. Ota-onsa vaziyatni surishtirsa, pedagog uyda qo'rqiб ketgan bo'lsa kerak, deb vaziyatni yumshatishga harakat qildi. Boladan so'ralsa, bola hech nima gapirib bera olmaydi.

#### Savollar:

1. Bu vaziyatda kim aybdor?
2. Ota-onsa qanday yo'l tutishi kerak?
3. Bolaga endi qanday munosabat bildirish kerak?

#### Tinglovchilarga tavsiya etiladigan manbalar:

"Pedagogika" va "Psixologiya"ga oid adabiyotlar.

#### Tinglovchilar uchun ko'rsatmalar:

1. Keys mohiyatini etarlicha anglab oling.
2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi tarbiya tamoyillarini aniqlang.
3. Aniqlangan tarbiya tamoyillari orasidan muammoga barchasidan ko'proq daxldor bo'lgan, eng muhim tamoyil (yoki ikkita tamoyil)ni ajrating.
4. Ana shu tamoyil (tamoyillar) asosida echimni asoslashga uring.
5. Echimni bayon eting.

### O'qituvchining echimi

1. Pedagogning tarbiyada bolaning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olmadi va tarbiya jarayonida qattiqko'lllik metodidan foydalandi.
2. Ota-onsa bog'cha mudirasi bilan kelishib, Madinani boshqa xaqiqitan muloyim, xushfe'l pedagog guruhiga o'tkazishi kerak.
3. Yangi pedagogga esa vaziyatni tushuntirib, Madinaga e'tiborliroq

## **Pedagogning professional kompetentligi va mahorati**

---

bo‘lishni so‘rab, alohida logoped, psixolog va nervopatolog bilan ishlab Madinani  
bu kuchli stressdan chiqarib olish kerak

## TESTLAR TO‘PLAMI

## **“PEDAGOGNING PROFESSIONAL KOMPETENTLIGI VA MAHORATI”**

moduli bo‘yicha

**“Jismoniy tarbiya instruktori” yo‘nalishi bo‘yicha maktabgacha ta’lim  
tashkilotlari pedagog kadrlarini malakasini oshirish kursi uchun**

**“Kompetentsiya” so‘zining lug‘aviy ma’nosi nima?**

lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, “mos kelmoq” degan ma’noni anglatadi

inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib, “yangilik kiritish” degan ma’noni anglatadi

arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, “mahorat” degan ma’noni anglatadi

yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib, “men o‘rgataman, men o‘qitaman” degan ma’noni anglatadi

**Kompetentsiyaga berilgan ta’rifni toping.**

oligan nazariy bilim, amaliy ko‘nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar majmuasini amaliyotga qo‘llay olish qobiliyati va layoqati

ta’lim tizimini isloq qilish jarayonlarida amalga oshirilayotgan o‘zgartirishlar va yangiliklarni qo‘llash

o‘z sport turini chuqur bilish, pedagogik jarayonlarda o‘quvchilarning faolligini oshirishga alohida ahamiyat qaratish

pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish qobiliyati

**“Kompetentlilik” deganda nima tushuniladi?**

aniq vaziyatda kompetentni namoyon qilish

pedagogik jarayonlarni nazorat qilish

o‘z-o‘zini rivojlantirish

yangiliklarni tatbiq etish

**“Professional kompetentlik” deb qanday faoliyatga aytildi?**

kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarining egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi;

## Pedagogning professional kompetentligi va mahorati

ta’lim beruvchi tomonidan aniq maqsad asosida yosh avlodni har tomonlama o’stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni

ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish.

izchil ravishda kasbiy o‘sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish

### Professional kompetentlik qanday sifatlardan iborat?

ijtimoiy, shaxsiy, texnologik, ekstremal, maxsus

shaxsiy, kasbiy, innovatsion, ekstremal, maxsus

ijtimoiy, kommunikativ, kreativ, texnologik, maxsus

texnologik, metodik, psixologik, ekstremal, maxsus

### Psixologik, metodik, informatsion, innovatsion, kommunikativ, kreativ kompetentliklar professional kompetentlikning qaysi sifatiga tegishli?

maxsus kompetentlikka

shaxsiy kompetentlikka

ijtimoiy kompetentlikka

ekstremal kompetentlikka

### “Ektremal kompetentlik” deganda nimani tushunasiz?

favqulodda vaziyatlarda, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish

kasbiy-pedagogik bilim, ko‘nikma va malakani boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish

ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari bilan samimiy muloqotda bo‘lish, ularga ijobjiy ta’sir ko‘rsata olish

pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondoshish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish

### Professional kompetentlikni rivojlantirish darajalarini to‘g‘ri ketma-ketlikda belgilang.

malakasiz → rivojlanayotgan → tajribali → ilg‘or → professional

malakasiz → tajribali → rivojlanayotgan → ilg‘or → professional

rivojlanayotgan → malakasiz → tajribali → ilg‘or → professional

malakasiz → rivojlanayotgan → ilg‘or → professional → tajribali

## Pedagogning professional kompetentligi va mahorati

### “Mahorat” so‘zining lug‘aviy ma’nosi nima?

arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, “mohirlik”, “ustalik”, “epchillik” degan ma’noni anglatadi

lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, “loyiq” “mos kelmoq” degan ma’noni anglatadi

inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib, “yangilik kiritish” degan ma’noni anglatadi

yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib, “men o‘rgataman”, “men o‘qitaman” degan ma’noni anglatadi

**Biror bir ish yoki faoliyatni yuksak darajada, hech bir qiyinchiliksiz, o‘ta mohirlik bilan bajarish qanday nomlanadi?**

mahorat

bilim

ko‘nikma

malaka

**Pedagogik mahorat qanday tarkibiy qismlardan iborat?**

insonparvarlik, kasbiy bilimlar, pedagogik qobiliyat, pedagogik texnika

bag‘rikenglik, muomala madaniyati, pedagogik takt, pedagogik texnika

insonparvarlik, kasbiy bilimlar, nutq madaniyati, muomala madaniyati

nutq malakasi, kasbiy bilimlar, pedagoginig mimikasi, pedagogning pantomimikasi

**Shaxsning osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta’minlaydigan individual psixologik xususiyati qanday nomlanadi?**

qobiliyat

malaka

mohirlik

ko‘nikma

**Didaktik, akademik, perceptiv, nutqiy, tashkilotchilik, avtoritar, kommunikativ kabi qobiliyatlar qanday qobiliyatlar turlariga kiradi?**

pedagogik qobiliyat

jismoniy qobiliyat

aqliy qobiliyat

## Pedagogning professional kompetentligi va mahorati

psixologik qobiliyat

### Konstpunktiv qobiliyat nimada namoyon bo‘ladi?

o‘quv-trenirovka mashg‘ulotlarini samarali rejallashtirish va natijasini oldindan ko‘ra bilish

o‘quvchining kelajakda qanday inson bo‘lishini tasavvur qilish qobiliyati

o‘quvchilarga bevosita emotsiyal – irodaviy ta‘sir ko‘rsatish va shu asosda obro‘ qozona olish qobiliyati

o‘quvchilar jamoasini uyuştirish, jipslashtirish, ularni ruhlantirish qobiliyati

### Kommunikativ qobiliyat nimada namoyon bo‘ladi?

muomala va muloqot o‘rnata olish, bolalarga kirishib ketish qobiliyati

o‘quvchining kelajakda qanday inson bo‘lishini tasavvur qilish qobiliyati

oson yo‘l bilan murakkab bilimlarni o‘quvchilarga tushuntira olish qobiliyati

o qisqa daqiqalarda o‘quvchilar holatini idrok qila olish qobiliyati

### Perseptiv qobiliyat deganda nimani tushunasiz?

qisqa daqiqalarda o‘quvchilar holatini idrok qila olish qobiliyati

muomala va muloqot o‘rnata olish qobiliyati

o‘z harakatlarining oqibatini ko‘ra bilish qobiliyati

o‘quv guruhi yoki jamoani uyuştirish va uni boshqarish qobiliyati

### Didaktik qobiliyat deganda nimani tushunasiz?

oson yo‘l bilan murakkab bilimlarni o‘quvchilarga tushuntira olish qobiliyati

muomala va muloqot o‘rnata olish qobiliyati

o‘z harakatlarining oqibatini oldindan ko‘ra bilish qobiliyati

‘quvchilar jamoasini uyuştirish va ularni ruhlantirish qobiliyati

## Pedagogning professional kompetentligi va mahorati

### Pedagogik texnika qanday komponentlardan iborat?

o‘zini boshqara olish; shaxs va jamoaga ta’sir ko‘rsatish

o‘quv guruhi yoki jamoani uyuştirish; jamoani boshqarish

pedagogik faoliyatni oqilona tashkillashtirish; ta’lim-tarbiya jarayonini amalga oshirish

nutqiy qobiliyat; muomala madaniyatiga roiya qilish

### Pedagogik takt bu?

insonparvarlik, gamxurlik, sabrlilik, odob-axlokiylik va boshkalar;

intizomlilik, bilimlilik donolik;

savodxonlik, intizomlik. gamxurlik;

maxorat, sabrlilik, mulokot;

### Pedagogika fanining asosiy tushunchalari qaysilar?

Tarbiya, ta’lim, ma’lumot, rivojlanish, shakllanish;

O‘qituvchi, ta’lim – tarbiya;

Ta’lim, didaktika, ma’lumot, metod;

O‘qitish, tarbiyalash, o‘qituvchi, ma’lumot;

### Ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqiy maqomi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning nechanchi moddasi keltirilgan?

44-moddasida;

5-moddasida;

3-moddasida;

10-moddasida.

### Maktabgacha ta’lim jismoniy tarbiya yo‘riqchisining vazifasi hozirgi zamonda nimalardan iborat?

Bolalarga jismoniy tarbiyaning zamonaviy shakllari va usullarini o‘rgatish;

Bolalarni mustaqil va erkin fikr lashga o‘rgatish;

Bolalarga puxta bilim berish;

## Pedagogning professional kompetentligi va mahorati

O‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish.

### **Texnologiya so‘zining lug‘aviy ma’nosi?**

Texne – mahorat, san’at, logos – tushuncha, fan ta’limot;

Texnologiya – ishlab iqrish usuli;

Texne –texnika, logos - ta’limot;

Buyumni tayyorlash jarayoni.

### **Lug‘aviy jihatdan “Innovatsya” tushunchasi bu-?**

Yangilik kiritish;

O‘zgartirish kiritish;

Qo‘srimcha kiritish;

Taklif kiritish.

**Bilish qobiliyati** – o‘qituvchining ta’lim jarayonining ishtirokchilari – talabalar, ota-onalar, hamkasblar va ta’lim muassasasining rahbarlari bilan oson muloqotga kirishish, ular bilan munosabatni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishga yordam beradigan individual psixologik xususiyat.

**Diapazon** (yunon. “diapason” – “barcha (torlar) orqali”) – tovush hajmi bo‘lib, uning chegarasi eng yuqori va quyi ohanglar bilan belgilanadi.

**Jest** (gavda, qo‘l va oyoq harakatlari) – muayyan hodisa yoki ob’ektga nisbatan munosabatning gavda, qo‘l va oyoq harakatlari yordamida ifodalanishi.

**Ijtimoiy kompetentlik** – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub’ektlar bilan muloqotga kirisha olish.

**Individual rivojlanish dasturi** (IRD) – har bir shaxs yoki mutaxassisning o‘zida ma’lum sifat, BKM, kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish ehtiyojlari asosida ishlab chiqilgan shaxsiy-amaliy xarakterdagi dastur.

**Innovatsion kompetentlik** – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish.

**Intuitsiya** (lot. “intuition” < “intueri” – “sinchiklab, diqqat bilan qaramoq”) – mantiqiy bog‘lanmagan yoki mantiqiy xulosaga kelish uchun etarli bo‘Imaganda qidiruv yo‘nalishlari asosida masalani echishning tarkibini bo‘lgan evrestik (unumli ijodiy fikrlash) jarayoni.

**Informatsion kompetentlik** – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma’lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishslash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish.

**Kasbiy bilimlarni puxta o‘zlashtirish madaniyati** – pedagog tomonidan mavjud pedagogik bilimlarni puxta o‘zlashtirish yo‘lida amaliy harakatlarning tashkil etilayotganligini anglatuvchi sifat.

**Kasbiy ziyraklik** – o‘quvchilar ruhiy holatlarini, dars, tarbiyaviy tadbirlarni o‘tkazishga bo‘lgan ishtiyoqlarini to‘g‘ri baholash, ularning o‘zaro yoki pedagoglar bilan ziddiyatlarini anglash, o‘quvchi va guruhga ta’sir ko‘rsatishda qulay vaziyatini tanlay bilish.

**Kasbiy kompetentlik** – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi.

**Kasbiy-pedagogik burch** – mutaxassis sifatida o‘qituvchi tomonidan kasbiy faoliyatda ado etilishi majburiy bo‘lgan vazifa.

**Kommunikativ kompetentlik** – ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo‘lish, ularni tinglay bilish, ularga ijodiy ta’sir ko‘rsata olish.

**Kompetentlik** (ingl. “competence” – “qobiliyat”) – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqoridaراجادي kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish.

**Kreativ kompetentlik** – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondoshish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish.

**Kreativlik** (ingl. “create” – yaratish, “creative” – “yaratuvchi”, “ijodkor”)

---

## Pedagogning professional kompetentligi va mahorati

individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati.

**Maxsus kompetentlik** – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi.

**Mahorat** (arab. “mohirlik”, “ustalik”, “epchillik”) – 1) biror ish, kasb uchun zarur yoki shu sohada orttirilgan ustalik, san’at, mohirlik; 2) bir ish yoki faoliyatni yuksak darajada, hech bir qiyinchiliksiz, o‘ta mohirlik bilan bajarish; 3) muayyan ish, xatti-harakat yoki kasbiy faoliyatning ustalik, mohirlik bilan, san’atkorona tashkil etilishiga imkon beradigan bilim, ko‘nikma va malakalar majmui.

**Metodik kompetentlik** – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo‘llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo‘llash.

**Mimika** (yunon. “mimikos” – “taqlidiy”) – yuz muskullari harakatlari orqali shaxsning o‘z fikri, his-tuyg‘ulari, kayfiyati hamda mavjud voqelikka munosabatini ifodalashi.

**Muloqot jarayonida axborot almashish vositalari** – shaxslararo muloqot jarayonida axborot almashinuvini ta’minlovchi moddiy va nomoddiy narsa, omillar (og‘zaki va yozma nutq, paralingvistik va ekstralinguistik tizimlar, muloqotning tashkiliy ko‘لامи va vaqt, ko‘з qarashlar yordamida tashkil etiladigan aloqa, belgilarning optik-kinetik tizimi (mimika, pantomimika, jestlar – gavda, qo‘l va oyoq harakatlari))

**Muloqot** – 1) kishilarning o‘zaro aloqasi, bir-birlariga ta’sir ko‘rsatishlari kishilar o‘rtasidagi aloqani tiklash va rivojlantirish jarayoni; 2) kishilarning bir-birlariga ta’sir ko‘rsatishi asosida ular o‘rtasida ro‘y beradigan axborot almashinuvi.

**Muloqot madaniyati** – 1) muloqot jarayonini axloqiy me’yorlar, ijtimoiy talablarga muvofiq tashkil etish asosida suhbatdoshni tushuna olish ehtiyoji va qobiliyatiga egalik; 2) pedagogik madaniyatning tarkibiy elementlaridan biri.

**Nafas olish** – 1) organizmga hayot bag‘ishlovchi fiziologik funktсия; 2) nutqning energiya bazasi.

**Nafas olish texnikasi** – fiziologik funktсия yoki nutqning energiya bazasi sifatida nafas olishda qo‘llaniladigan vositalar majmui

**Noyob qobiliyatlar** – shaxsga xos individual psixologik xususiyatning shunday turi bo‘lib, u juda kam sonli shaxslardagina kuzatiladi va ko‘p uchraydigan psixologik hodisa sanalmaydi

**Nutq apparati** – nutqni hosil qilishda ishtirok etuvchi organlar.

**Nutqli** (yoki tovushli) **nafas olish** (fonatsion, yunon. “phono” – “tovush”) – nafasning nutq jarayonidagi olinishi

**Nutq madaniyati** – o‘z fikrini nutq yordamida mantiqli, to‘g‘ri, obrazli, aniq va ifodali etkazib berish malakalarining o‘zlashtirilganlik darajasi

**Nutq texnikasi** – nutqni tinglovchi yoki o‘quvchiga etkazishda qo‘llaniladigan vositalar majmui

## Pedagogning professional kompetentligi va mahorati

---

**Nutq hosil qiluvchi organlar** – nutqni hosil qilish jarayonida ishtirok etuvchi organlar (o‘pka, ikkita bronx, traxeya, kekirdak, bo‘g‘iz, hiqildoq, halqum, tishlar, burun bo‘shlig‘i, lablar)

**Pantomimika** – pedagog tomonidan bayon etilayotgan muayyan fikrni alohida ajratib ko‘rsatishga, ma’lum qiyofa orqali gavlantirishga imkon beradi gavda, qo‘l va oyoqlarning harakati

**Paralingvistik tizim** (yunon. “pará” – yaqin, nem. “linguistik” – til) – muloqot tarkibida so‘zli, nazariy ma’lumotlarniso‘zsiz vositalar bilan birgalikda uzatilishi anglatuvchi tizim.

**Pedagogik bilim** – bolalarni o‘qitish va tarbiyalash, ta’lim hamda tarbiya jarayonini tashkil etish asosida shaxsni har tomonlama kamol toptirishga doir tizimlangan ma’lumotlar yig‘indisi

**Pedagogik bilimdonlik** – 1) pedagog tomonidan mutaxassislik bilimlarining puxta egallanganligi; pedagogning bilag‘onligi; 2) pedagogning kasbiy faoliyatni mavjud ijtimoiy talab, huquqiy me’yor va standartlarga muvofiq tashkil etishga bo‘lgan qobilligi, kasbiy tayyorgarlik darajasi

**Pedagogik boshqarish** – pedagogik jarayonlarni tashkiliy-metodik jihatdan uyuştirish (talabalar faoliyatni boshqarish; talabalar jamoasini boshqarish)

**Pedagogik dunyoqarash** – pedagog va ta’lim oluvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlari jarayonining mazmunini, natijalarini belgilovchi dialektik qarashlar va e’tiqodlar tizimi

**Pedagogik ijod** – pedagogning kasbiy jarayonni samarali tashkil etishga yo‘naltirilgan yaratuvchanlik faoliyati Pedagogik intuitsiya (lot. “intueri” – “sinchiklab, diqqat bilan qarash”) – pedagog tomonidan pedagogik voqeahodisaning mohiyatini, o‘quvchi xatti-harakatlari mazmunini tasavvur, empatiya va orttirilgan tajriba asosida his-tuyg‘u, sezgi yordamida, ziyraklik bilan mantiqiy dalillarsiz bevosita anglash

**Pedagogik kreativlik** (lot. “creatio” – “yaratish”) – pedagogning an’anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta’lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta’minalashga xizmat qiluvchi yangi g‘oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo‘lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati

**Pedagogik loyihalash madaniyati** – pedagog tomonidan o‘zining ichki imkoniyatlari bilan talab, xohish-istiklarni o‘zaro uyg‘unlashtira olgan holda maqsad, vazifalarni to‘g‘ri belgilay olish, pedagogik jarayonni bosqichlar bo‘yicha rejalashtirish, rejani amalga oshirishda zarur vositalarni tanlab bilish malakasi egalikni tavsiflovchi sifat

**Pedagogik madaniyatga egalikni ifodalovchi sifatlar** – o‘qituvchida kasbiy xulq-atvor, odob, muomala va xatti-harakat ko‘nikma, malakalar mavjudligini ifodalovchi sifatlar

**Pedagogik madaniyatning tarkibiy elementlari** – o‘qituvchining mutaxassis sifatida kasbiy madaniyati sifatlarini hosil qiluvchi tarkibiy element (unsur)lar (pedagogik loyihalash madaniyati; kasbiy bilimlarni puxta o‘zlashtirish madaniyati; pedagogik dunyoqarash; fikrlash madaniyati; his etish madaniyati; baholash madaniyati; muloqot madaniyati; tashkilotchilik qobiliyati)

**Pedagogik madaniyat** – 1) pedagogning shaxs va mutaxassis sifatida muayyan xulq-atvor, odob, muomala va xatti-harakat ko‘nikma, malakalarini o‘zlashtirish darajasi; 2) pedagogning kasbiy vazifalarni hal qilish usul va vositalarini o‘zlashtirganlik, pedagogik bilimdonlik, takt, texnika va madaniyatni namoyon qila olishning yuqori darajasi

**Pedagogik majburiyat** – jamiyat tomonidan o‘qituvchi shaxsiga, u tomonidan bir qator pedagogik majburiyatlarning bajarilishiga nisbatan qo‘yiladigan talab va axloqiy yo‘l-qo‘riy, ko‘rsatmalar majmuasi.

**Pedagogik mahoratning muhim tarkibiy qismlari** – o‘qituvchilarda namoyon bo‘ladigan kasbiy mahorat asosini tashkil etuvchi element (unsur)lar (pedagogik odob, pedagogik bilimdonlik, pedagogik qobiliyat, pedagogik muloqot madaniyati, pedagogik relaksatsiya, kommunikativ ta’sir ko‘rsatish qobiliyati, pedagogik takt (nazokat), pedagogik texnika, nutq texnikasi, pedagogik ijodkorlik, pedagogik tajriba, pedagogik madaniyat)

**Pedagogik mahorat** – 1) o‘qituvchining pedagogik jarayonni tashkiliy, metodik, ruhiy va sub’ektiv jihatdan o‘ta mohirlik, ustalik bilan tashkil etish va boshqarish qobiliyati, ko‘nikma-malakasiga egaligi; 2) ta’lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondoshuv, metodik bilimlarni samarali qo‘llay olish qobiliyati, yuksak pedagogik tafakkur; 3) pedagog tomonidan kasbiy faoliyatning ustalik, mohirlik bilan, san’atkorona tashkil etilishini ta’minlovchi bilim, ko‘nikma va malakalar majmui

**Pedagogik muloqot** – pedagogning o‘quvchilar jamoasi, ota-onalar, hamkasblar hamda rahbariyat bilan uyuştiradigan suhbati

**Pedagogik muloqot madaniyati** – pedagogning o‘quvchilar jamoasi, ota-onalar, hamkasblar, rahbariyat bilan pedagogik odob va muloqot talablariga muvofiq holda uyuştiriladigan suhbati

**Pedagogik muloqotning avtoritar uslubi** – pedagogik muloqotda o‘qituvchining mutloq ustunligini ifodalovchi uslub

**Pedagogik muloqotning demokratik uslubi** – pedagogik muloqotda o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligini ifodalovchi uslub

**Pedagogik muloqotning liberal uslubi** – pedagogik muloqotda o‘qituvchining e’tiborsizligini ifodalovchi uslub

**Pedagogik muloqot uslublari** – o‘qituvchilar tomonidan pedagogik jarayonda ta’lim ishtirokchilari bilan muloqotni tashkil etishda qo‘llaniladigan usullar majmui (avtoritar uslub, demokratik uslub, liberal uslub)

**Pedagogning individual rivojlanish dasturi** – pedagogning individual ravishda o‘zida u yoki bu kasbiy-pedagogik sifat, BKM, kasbiy kompetentlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish ehtiyojlariga tayangan holda ishlab chiqqan shaxsiy-amaliy xarakterdagi dasturi

**Pedagogik novatorlik** – pedagogik faoliyatda ilg‘or tamoyil yoki g‘oyani asoslash, yangi yo‘l, usul yoki vositalarni tavsiya qilish, ularni amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan ijodiy yondoshuv

**Pedagogik obro‘** – pedagogning o‘quvchilar, ularning ota-onalari, pedagogik jamoa, shuningdek, jamiyat tomonidan e’tirof etilgan axloqiy maqomi

**Pedagogik odob** – o‘qituvchi oldiga uning o‘ziga, kasbiga, jamiyatga,

bolalarga va o‘quv-tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilariga munosabatda bo‘lishiga nisbatan qo‘yiladigan axloqiy talablar tizimi

**Pedagogik relaksatsiya** (lot. “relaxatio” – “zaiflashish”, “bo‘shashish”) – talabalarning hissiy faoliyati, ruhiy-jismoniy quvvati va ishchanlik qobiliyatini qayta tiklash

**Pedagogik refleksiya** (lot. “reflexio” – “ortga qaytish”, “aks etish”) – pedagogning shaxs ongi mohiyati va vazifalarini, shu jumladan, qadriyatlari, qiziqishlari, rag‘batlantiruvchi omillar, fikrlash, idrok, qarorlar qabul qilish, hissiy ta’sirlanish, xatti-harakatlari va boshqalarning mohiyatini anglab etishi

**Pedagogik tafakkurning rivojlanish bosqichlari** – pedagog omonidan kasbiy faoliyatni tashkil etish yoki pedagogik yo‘nalishda tahsil olayotgan talabalarda ixtisoslik BKMning o‘zlashtirilishi bilan bog‘liq holda tafakkurning izchil, qadam-baqadam rivojlanib borish davrlari

**Pedagogik tajriba** – kasbiy faoliyatni tashkil etish jarayonida pedagog tomonidan o‘zlashtirilgan orttirilgan BKM majmui

**Pedagogik takt** (lot. “tactus” – “dahl qilish”, “dahldorlik”, “his etish”, “tuyg‘u”) – pedagogning o‘quvchilar bilan turli faoliyat shakllari bo‘yicha tashkil etiladigan muloqotda mavjud axloqiy tamoyillar hamda hulq-atvor qoidalarga rioya qilishi, ularga to‘g‘ri yondoshish malakalariga egaligi

**Pedagogik tafakkur** – pedagogik jarayon, vaziyat va hodisalar mohiyatining, shuningdek, ular o‘rtasidagi muhim bog‘lanish va aloqalarning pedagog ongida to‘laqonli aks etishi, yangi g‘oyalarni ilgari surish, yangiliklar yaratish, shuningdek, pedagogik jarayon, vaziyat va hodisalarning natijalarini bashoratlash; pedagog aqliy faoliyatining yuksak shakli

**Pedagogik texnikaning vositalari** – pedagog tomonidan o‘quvchilarning u yoki bu harakatlari yoki ularda namoyon bo‘ladigan ma’naviy-axloqiy sifatlariga nisbatan sub’ektiv munosabat, alohida his-tuyg‘ularning ma’noli ifodalanishini ta’minlovchi vositalar (nutq va og‘zaki bo‘lmagan muloqot)

**Pedagogik texnika metodlari** – pedagog tomonidan o‘quvchilarning u yoki bu harakatlari yoki ularda namoyon bo‘ladigan ma’naviy-axloqiy sifatlariga o‘zining sub’ektiv munosabat, alohida his-tuyg‘ularni ma’noli ifodalanishini anglatuvchi metodlar

**Pedagogik texnika** – pedagog tomonidan o‘zlashtirilgan alohida talaba va talabalar jamoalariga pedagogik ta’sir ko‘rsatish metodlarini amalda samarali qo‘llay olish uchun zarur bo‘lgan BKM yig‘indisi (o‘zini o‘zi hissiy boshqarish, pantomimika, mimika, jest (gavda, qo‘l, oyoq harakatlari), nutq texnikasi, alohida so‘z yoki ifodalarni ifodalash sur’ati (ritmika))

**Pedagogik hamdardlik** (empatiya) – pedagogga xos sifat (talabalar, ota-onalar, hamkasblar va rahbarlarning xatti-harakatlari, hissiyotlari, hayotiy intilishlari, tabiatlarini tushunish, boshqalar nuqtai nazarini ma’qullash asosida jamoadagi munosabatlarni me’yorda tashkil etilishini ta’minlash; o‘zgalarning ichki holatini, o‘y-fikrlarini va his-tuyg‘ularini tushuna olish; boshqalarning boshiga tushgan kulfat, falokatlardan qayg‘urish; rollarni qabul qilish – og‘ir vaziyatda bo‘lgan kishilarning o‘rniga o‘zini tasavvur, mushohada yordamida qo‘yib ko‘rgan holda ulardagi ijobiy his-tuyg‘ularini qayta tiklashga ko‘maklashish; o‘zgalarning

## Pedagogning professional kompetentligi va mahorati

---

qayg‘u-alamlaridan, kulfatlaridan qayg‘urish, ko‘ngilni ko‘taruvchi, taskin beruvchi so‘zlar bilan og‘ir vaziyatda qolgan kimsalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatish

**Pedagogik qobiliyatni rivojlantirish** – faqat pedagoglarga gina xos bo‘lgan qobiliyatlarni yanada boyitish va takomillashtirish uchun zarur shart-sharoitni yaratish

**Pedagogik qobiliyat** – pedagogik faoliyatni oqilona tashkillashtirish va olib borilishiga imkon beradigan, amaliy vazifalarning samarali bajarilishini ta’minlashda ahamiyatli bo‘lgan pedagogga xos xususiyatlar

**Pertseptiv-pedagogik qobiliyatlar** (lot. “perceptio” – o‘zlashtirish) – shaxsning ichki dunyosiga kira bilish, psixologik kuzatuvchanlik, o‘quvchining psixik holatlarining nozik jihatlarini tushuna olish qobiliyati

**Psixologik kompetentlik** – pedagogik jarayonda sog‘lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish

**Relaksopediya** (lot. “relaxation” – “quvvatsizlik”, “zaiflashish”, ruhan yoki jismonan holda toyishni bartaraf etish pedagogikasi) – shaxsda ruhiy va jismoniy toliqishlarni bartaraf etishga qaratilgan pedagogik faoliyat

**Ritmika** – ayrim so‘z va bo‘g‘inlarning aytish muddati va to‘xtalishi, nutq va ifodalarning navbat bilan o‘z o‘rnida ishlatalishi

**Ritm** (yunon. “rhythmos” < “rjeo” – “oqaman”) – nutqda tovushlarning muayyan izchillik, ketma-ketlikda asosida takrorlanib kelishi, ya’ni nutq vaznini ifodalovchi muhim xususiyat

**Ruhiy barqarorlik** – ruhiy-hissiy holat (ta’sirlanish)larning davomiyligi va barqarorlik darajasi

**Tashkilotchilik qobiliyati** – pedagog tomonidan ta’limiy va tarbiyaviy jarayonlarni ilmiy-nazariy, metodik va hissiy jihatdan to‘g‘ri tashkil etilishini anglatuvchi sifat

**Tembr** (fr. “timbre” – “qo‘ng‘iroq”, “belgi”, “tamg‘a”, “farqlovchi belgi”) – tovushning tovlanishi (tovush rangdorligi, yorqinligi, yumshoqligi va alohidaligi)ni ifodalovchi xususiyat

**Texnologik kompetentlik** – kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish

**Tovushning ixchamligi va harakatchanligi** – nutq hosil qiluvchi organlar faoliyati asosida hosil bo‘lgan tovushning bejirim, yig‘inchoq va tebranuvchan ekanligini anglatuvchi xususiyat

**Tovush kuchi** – nutq hosil qiluvchi organlar faoliyati asosida hosil bo‘lgan tovushning quvvati

**Tovush pardozi** – nutq hosil qiluvchi organlar faoliyati asosida hosil bo‘lgan tovushning sayqali, bezagi

**Tovush** – chiqarilgan havoni xiqildoqdan o‘tish paytida ovoz pardalarning tebranishi natijasida vujudga keladigan hodisa, sado, sas

**Fikrlash madaniyati** – pedagogning mavjud pedagogik vaziyatlarni inobatga ola bilishi, ularning mohiyatidan kelib chiqqan holda to‘g‘ri qarorlar qabul qilishi va

ularni amaliyotga samarali tatbiq eta olishini ifodalovchi sifat

**Shaxsiy kompetentlik** – izchil ravishda kasbiy o’sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish

**Ekstraliningistik tizim** (ingl. “exterior” – “tashqarida”, nem. “linguistik” – “til”) – gapiroyotgan shaxsning ijtimoiy vazifalari bilan bevosita bog’liq holda nutqning tashkil etilishi (nutqiy tanaffuslar, kulgu, yo’talish, nafas olish, yig’lash, tutilish va b.)ni ifodalovchi tizim

**Ektremal kompetentlik** – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik

**O‘zini o‘zi baholash** (O‘O‘B) – shaxsning o‘z-o‘zini tahlil qilishi orqali o‘ziga baho berishi

**O‘z-o‘zini rivojlantirish** – shaxsning o‘zida kasbiy tajriba, malaka va mahoratni takomillashtirish yo‘lida aniq maqsad va puxta o‘ylangan vazifalar asosida mustaqil ravishda amaliy harakatlarni tashkil etishi

## **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" PF-4947-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 6 (766)-son. – 70-modda. – B. 25–151.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16- iyuldag'i "Davlat ta'lif muassasalari huzurida sport klublarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 542-sonli Qarori // <http://lex.uz/pdfs/3824011>
3. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. – T.: "O'zbekiston", 2019.
4. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – T.: "O'zbekiston", 2018.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: "O'zbekiston", 2018. – 592 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017- yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'naliishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017-yil 14 -yanvar. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 104 b.
7. Asqarova O'.M. Pedagogika: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik / O'.M. Asqarova, M. Xayitboyev, V.S. Nishonov; O'zR oliy va o'rta-maxsus ta'lif vazirligi. – T.: "Talqin", 2008. – 288 b.
8. Umumiy pedagogika: Darslik / R.A. Mavlonova, N.H. Rahmonqulova, K.O. Matnazarova, M.K. Shirinov, S. Hafizov. – T.: "Fan va texnologiya", 2018. – 528 b.
9. Abdullayeva Sh.X. Pedagog professional kompetentliligini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari: Psixol.f.d. (DSc) ... dis-ya avtoreferati: 19.00.05. – T.: O'zMU, 2019. – 61 b.
10. Andriadi I.P. Osnovi pedagogicheskogo masterstva / Andriadi I.P.. – 2-e izd. – M.: NITs INFRA-M, 2016. – 200 s.–ISBN 978-5-16-011222-0
11. Emel'yanova M.V., Jurlova, I.V., Savenko, T.N. Osnovi pedagogicheskogo masterstva: Kurs lektsiy dlya stud. ped. un-ta. [Elektronniy resurs] / M.V. emel'yanova I.V. Jurlova, T.N. Savenko. – Mozir': UO «MGPU», 2005. – 150 s.
12. Jabakov V.e. Pedagogicheskoe masterstvo uchitelya fizicheskoy kul'turi [Tekst]: uchebnoe posobie / V.e. Jabakov, T.V. Jabakova. – Chelyabinsk: Izd-vo Yuzno-Ural'skogo gosudarstvennogo gumanitarno-pedagogicheskogo universiteta, 2016. – 195 s.
13. Pulatov J.A. Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisining dars jarayonlarini tashkil etishida psixologik yondashuvi. O'quv qo'llanma. T.:ITA PRESS, 2020.-170 b.
14. Kompetentnostnaya model sovremennoego pedagoga: uchebno-metodicheskoe posobie / [O.V. Akulova, e.S. Zair-Bek, S.A. Pisareva i dr.]; RGPU im. A. I. Gertsena. – Sankt-Peterburg: izdatel'stvo RGPU, 2007. – 158 s.

## Pedagogning professional kompetentligi va mahorati

---

15. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.– T.: “Nihol” nashriyoti, 2013, 2016.–279 b.

### **Elektron ta’lim resurslari:**

1. <http://www.ziyonet.uz>
2. <http://www.minsport.uz>
3. http://[www.sportedu.uz](http://www.sportedu.uz)
4. <http://edu.uz>
5. <http://lex.uz>
6. https:// sportedu.uz